

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

IV KURS KUNDUZGI BO'LIM BITIRUVCHISI

_____NING

**“Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Buxoro
adabiy muhiti talqini”**

mavzusidagi

**5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) yo'nalishida bakalavr
ilmiy darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2015-2016 - o'quv yili)

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent _____**

Buxoro - 2016

Mavzu: Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Buxoro adabiy muhiti talqini

Kirish

I bob Hasanxoja Nisoriy ma’naviy merosining mundarijasi

- 1.01. Nisoriyning hayoti va ijod yo’li
- 1.02. “Muzakkiri ahbob” asarining tarkibi va tuzilishi

II bob “Muzakkiri ahbob” da adabiy hayot talqini

- 2.01. Buxoro adabiy muhiti Nisoriy talqinida
- 2.02. Tazkirada Naqshbandiya tariqatiga munosabat

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Sharq adabiyotida tazkira yozish an'anasi uzoq tarixga ega. Ana o'sha davr ichida tazkira mazmun va shakl jihatdan kattagina o'zgarishni boshidan kechirdi. Tazkira adabiy janr sifatida Sharq adabiyotida qadimiy davrlarda yuzaga kelgan hamda uning qat'iy ko'rinishlari shakllangan. IX-X asrdagi arab adabiyotshunosligida Abu-Abdulloh Ibn Salom al-Jumahiyning "Tabaqot ash-shuaro", Abu Mansur as Saolibiyning "Yatimat at-dahr" kabi ko'plab tazkirlari yaratilgan.

Saolibiyning "Yatimat at-dahr fi mahosin ahl al asr" tazkirasi muallifning zamondoshlariga bag'ishlangan. Ko'rinadiki, zamondosh shoirlar haqida tazkira yozish X asrdanoq arab adabiyotshunosligida ma'lum edi. XIII asrdan boshlab fors-tojik tilida tazkiralari yozila boshladi. Shunday tazkiralardan biri Avfoliy Buxoriyning "Lubobul albob" idir. Mazkur tazkira "Yatimat at-dahr" kabi faqat zamondoshlariga bag'ishlangan emas. Unda X-XIII asrlar davomida yashab ijod etgan ijodkorlar haqida ma'lumot beriladi. "Lubobul- albob" muallifi tazkira yozish an'anasiga yangi yo'nalish o'tmish hamda zamondosh shoirlarga bag'ishlangan. Tarixiy-zamonaviy yo'nalishda bitilgan tazkiralari yaratishni boshlab berdi. Ammo, shuni ham ta'kidlash kerakki, tarixiy zamonaviy tazkiralari zamondoshlariga bag'ishlangan tazkiralari vazifasini ham bajarib kelgan. Bunday tazkiralarning ma'lum bobida muallifga zamondosh bo'lgan shoirlari haqida mulohaza yuritilgan.

Sharq xalqlari adabiyotida tazkiralarning nodir namunalari yaratildi. "Tazkirayi Davlatshoh Samarqandiy", "Tazkirai Sodiq Kitobdor", "Muzakkiri ahbob", "Majolis un -nafois", "Tuhfatul ahbob fi tazkiratul azhob" shunday tazkiralari sirasiga kiradi O'zbek tazkirachiligini hazrat Alisher Navoiy boshlab bergan. "Xeva shoirlari", "Tazkirayi Qayumiy" asarlari ham XX asrda

yaratildi.XVI asrdan boshlab O'rta Osiyoda Alisher Navoiyning "Majolisun nafois" an'anasini davom ettiruvchi zamondoshlariga bag'ishlangan tazkiralar yaratish asosiy o'rin egalladi.Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasi shunday tazkiralar sirasiga kiradi.

"Muzakkiri ahbob" o'zining tuzilishi, unda ijodkorlar haqida berilgan ma'lumotlarning mazmuni va tabiati, dalillarga boyligi, muallifning ilmiy-badiiy, falsafiy mushohadalari, eng muhimi unda Buxoro adabiy muhitiga keng e'tibor berilgani bilan ilmiy qimmatga ega bo'lib, adabiyotshunoslik tarixini o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi. Ammo, tazkirada Buxoro adabiy muhiti maxsus tadqiq qilinmagan.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Adabiyotshunosligimizda "Muzakkiri ahbob" qisman tadqiq qilingan .Akademik Botirxon Valixo'jayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" (X-XIX asrlar) qo'llanmasida o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidning bevosita janrlar sirasiga kiritadi.O'nlab tazkiralar haqida mulohaza yuritilar ekan "Muzakkiri ahbob" ga ham muxtasar to'xtaladi.Iqboloy Adizovaning "O'zbek adabiyoti tarixi" qo'llanmasida (XVI-XIX asrning 2- yarmi) o'rni-o'ri bilan ""Muzakkiri ahbob ma'lumotlaridan foydalanilgan.Ammo, tazkirada Buxoro adabiy muhiti talqini hozirgacha yaratilgani ilmiy asarlarda tadqiq qilinmagan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari."Muzakkiri ahbob" kirish, 4 bob, xotimadan iborat bo'lib tazkiraning kirish qismida O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan shohlar haqida ma'lumot beriladi.Xotimada esa muallif o'zining tarjimai holi haqida fikr yuritadi.Asarning asosiy qismida muallif zamondoshlaridan 250 dan ko'proq ijodkor haqida ma'lumot beradi.Shoir vatanining shaxsiy xususiyati, jamiyatda tutgan o'ri va ijodining ahamiyati haqida qisqa, ammo aniq fikr yuritiladi.Ayni xususiyatlar bilan "Muzakkiri

ahbob” “Majolisun-nafois” uslubini eslatib turadi. Ushbu malakaviy bitiruv ishidan kuztilgan maqsad Alisher Navoiy uslubining davom ettirilgani, Buxoro adabiy muhitiga dahldor ijodkorlar misolida ko’rganligidadir.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

-“Muzakkiri ahbob” ning Xotima qismini sinchiklab o’rganish orqali muallifning hayot yo’liga oid masalalarni oydinlashtirish;

-Nisoriyning adabiy- tanqidiy fikrlari, dunyoqarashi, dunyo va unga munosabat haqida tasavvur hosil qilish;

-“Muzakkiri ahbob” ning Buxoro adabiy muhitini o’rganishda nodir manba ekanligini asoslash;

Malakaviy bitiruv ishining nazariy–uslubiy asosi. Ishni yozishda adabiyotshunoslikda mavjud qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi. Tazkira janrida yaratilgan asarlar ilmiy tadqiqini amalga oshirgan Abduqodir Hayitmetov, Botirxon Valixo’jayev, Suyima G’aniyeva kabi olimlarning tadqiqot uslublariga tayaniladi. “O’zbek adabiyoti tarixi”ning ko’p jildliligini yaratishdagi ilmiy-uslubiy tajribadan foydalangan holda, istiqlol davridagi talablar asosida ish ko’rildi.

“Muzakkiri ahbob” dagi ma’lumotlardan milliy mafkurani rivojlantirish maqsadida foydalanish ko’zda tutilgan holda istifoda etildi.

Malakaviy- bitiruv ishining ilmiy va amaliy ahamiyati

O’zbek mumtoz adabiyotidagi adabiyotshunoslik va adabiy tanqid haqida so’z yuritilganda fors tilida yaratilgan tazkiralarning to’g’risida fikr yuritish tabiiydir.

Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodining ,xususan,tazkirasining nafaqat keyingi davr o'zbek adabiyotiga , balki XX asrdan so'ng tojik va Ozarbayjon tilida yaratilgan tazkiralarga ko'rsatgan ta'siri ko'zga tashlanib turgan bir vaqtda bu masalani e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. XX asrdan boshlab tazkirachilikda 2 yo'nalish paydo bo'ldi. Bulardan biri "Lubobul –albob " va ikkinchisi "Majolisun – nafa'is " an'anasidir. Bu ikki an'ana XX asrgacha teng tarzda davom etgan bo'lsada, XVI asrdayoq O'rta Osiyoda "Majolisun- nafa'is" an'anasi ustunlikka erishgan edi. Bu holni "Muzakkiri ahbob" misolida ko'rishimiz mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining ahamiyati shundaki, unda Nisoriyning "Muzakkiri ahbob " asari XVI asrning birinchi va qisman ikkinchi yarmida Buxoro adabiy muhitini o'rganishda qimmatli manba ekanligi asoslanadi."Muzakkiri ahbob" o'zining ayrim xususiyatlari bilan Navoiyning tazkirachilik an'anasini davom ettirganligi xususida mulohaza yuritiladi.Tazkiradagi ma'lumotlarga tayangan holda Hasanxoja Nisoriy hayotiga oid muhim fikrlar bayon qilinadi.Tazkiradagi materiallar asosida keltirilan ma'lumotlardan o'rta, Oliy ta'lim yurtlarining o'quvchilari foydalanishlari mumkin.

Shuningdek, ushbu kichik ishdan oliy ta'lim tizimidagi filologiya fakultetlarida "Buxoro adabiy muhiti" mavzusi bo'yicha maxsus kurs o'tishda foydalanish mumkin.

I bob Hasanxoja Nisoriy ma'naviy merosining mundarijasi

1.01. Nisoriyning hayoti va ijod yo'li

Hasanxoja Nisoriy 1516-yili Buxoroda taniqli o'zbek shoiri va davlat arbobi Podshohxoja bin Abdulvahhobxoja oilasida dunyoga keladi, dastlabki ta'limni otasi qoshida va Buxoro madrasalarida oladi. Otasidan aruz sirlarini yaxshi o'zlashtirib, yosh shoir sifatida tanila boshlaydi. Nisoriy handasa, riyoziyot, musiqa va tibbiyot ilmlarini egallab bilimlarini ancha boyitadi. 1533-1543 yillari otasi Balxda shayxulislom paytlari Nisoriy ham shu shaharda yashab, Kamoliddin Qo'noq madrasasida handasa fanidan dars beradi. 1545-1550 yillari esa davlat ishlariga jalb etilib, Buxoroda Abdulazizxon, 1550-1554 yillari Miyonqol hokimlari Rustam Sulton va 1554-1566 yillar orasida Abdulquddus sulton huzurida sadrlik lavozimini boshqaradi hamda umrining oxirigacha Buxoroda yashab, maktabdorlik bilan shug'ullanadi.

She'riyatda ham kamolotga erishgan Nisoriy Iskandar Sulton (1581) va Abdullaxon II (1581-1589) davrining "malik ush -shuarosi" unvoniga ham sazovor bo'ladi. Uning shoirlikdagi shuhrati Hindiston, Kobul, Qoshg'ar o'lkalari adab ahli orasida ham ma'lum bo'lib, Akbarshoh saroyining "Malik ush-shuaro" si Kamoliddin Fayziy Dakaniy singari shoirlar Nisoriy bilan ijodiy do'stlik aloqalarini o'rnatadilar. (Nisoriy 1556- yili Hindistonga Humoyun huzuriga o'tlanadi, biroq, Humoyunning tasodifan vafoti tufayli bu safar shoir uchun bir umrlik orzu bo'lib qoladi.) Nisoriy she'riyat sohasida Mutribiy, Fitratiy, Davoiy, Hajriy, Sho'xiy, Shoxid kabi o'nlab iste'dodli shogirdlar ham yetishtiradi. Mutribiyning yozishicha, Saxiy ustoz o'ziga taxallusini "bor yo'g'im do'stlarga nisor bo'lsin" degan mazmunda tanlagan ekan. Hasanxoja Nisoriy 1003

hijriy (1597) yili vafot etadi va Bahouddin Naqshbandiy maqbarasi yoniga dafn qilinadi. “Muzakkiri ahbob”ning Xotima qismida Nisoriy o’zining qarindosh – urug’lari haqida ma’lumot beradi. Bu qismda nomlari berilgan Abdulvahhobxoja, Shayx –Alixoja bin Abdulvahhobxoja, Podshohxoja bin Abdulvahhobxoja, Bobojonxoja bin Abdulvahhobxoja, Abdusalomxoja bin Podshohxoja, Boboxoja bin Podshohxoja Valiullohxoja bin Mirimxoja bin Shayxalixoja , Shohimxoja bin Podshohxoja singari Nisoriyning avlodlari ham adabiyotga befarq emas edilar.Nisoriy ular haqida gapirar ekan dastlab,bobosi qutblar va mashoyixlar natijasi Abdulvahhobxoja nomini tilga oladi.Uning Sulaymonxojaning o’g’li ekani hamda ustozi Amir Abdulla Buzdoshobodiy qo’lida tarbiyalangani xususida aytib o’tib turkiy va forsiyda yozgan ajoyib g’azal va maqtalaridan misollar keltiriladi.Undan so’ng, amakilari Shayx-Alixoja bin Abdulvahhobxoja va Bobojonxoja bin Abdulvahhobxoja haqida ,Shayxalixojaning o’g’li Valiullohxoja haqida gapirib ularning fe’l-atvor xususiyati , jamiyatdagi mavqei borasida ham fikrlar yuritadi.Nisoriy Buxoro adabiy muhitining eng mahoratli, o’zining ko’plab asarlari bilan mashhur bo’lgan Poshshoxojaning o’g’lidir.Nisoriyning onasi, boshqa qarindosh –urug’lari haqida ma’lumotga ega bo’lmasakda, shoir sifatida uning otasi hayoti va ijodi tog’risida ancha ma’lumotga egamiz.

Poshshoxo’ja Abdulvahobxoja o’g’li, Xoja (1480, Niso — 1547, Buxoro) — shoir, davlat arbobi va yirik ulamo. Otasi — Abdulvahobxoja Sulaymonxoja o’g’li o’z davrining yirik tasavvuf shayxi va shoiri bo’lgan. Poshshoxoja Niso va Marv madrasalarida tahsil olgan. Muhammad Shayboniyxon qozoq xonlari ustiga qilingan harbiy yurishdan qaytayotganda Nisoda to’xtab, Poshshoxojani Durun viloyatiga hokim qilib tayinlaydi (1508 yil aprel). 1510 yil P. Nisoning yangi hokimi Muhammad Solih bilan birgalikda Marv jangiga yetib kelgan. Shayboniyxon o’limidan so’ng dastlab Samarqand, so’ngra Buxoroga kelib yashagan. Shayboniylardan Muhammad Temur Sulton va Ko’chkunchixon

xizmatlarida bo‘lib (1511 — 14), Karmana hokimi Jonibek Sulton hukumatida jumlat ul-mulk, sadrlik lavozimlarida ishlagan (1515—16). Buxoro xoni Ubaydullaxon Hirotni fath etgach (1529 yil 21 okt.), u sadrlikdan shayxulislomlik darajasiga ko‘tarilgan. Keyinchalik Balx hokimi Kistan Karo Sulton (1544 yil.) huzurida sadrlik va shayxulislom vazifasida faoliyat ko‘rsatgan (1534—43). Poshshoxoja 1543 yilda o‘z vazifasidan voz kechib, Buxoroga qaytadi va badiiy ijod bilan shug‘ullanadi. Poshshoxoja nasr va nazmda adabiy asarlar yaratgan. Muhammad "Xoja" taxallusi bilan ijod qilgan. U Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sultonga atab "Miftoh ul-adl" ("Adolat kaliti", 1508—10), Kistan Qaro Sultonga bag‘ishlab "Gulzor" (1538) kabi asarlar yozgan. Bu asarlarda axloqiy-didaktik xususiyatga ega bo‘lgan fiqolarni sharhlash uchun mashhur podshohlar haqidagi turli hikoyat va masallar keltirilgan. Ularda davlatni boshqarish, raiyat bilan munosabat masalalari, insofli va adolatli podshoh obrazi tasvirlangan.

Poshshoxoja ruboiy, g‘azal, qita janrlarida ham ijod qilgan. Jonibek Sultonga atab "Maqsad ul-atvor" (1516—20) dostonini yozgan. O‘zbek va fors tillarida tartib bergan devoni bizgacha yetib kelmagan. Poshshoxojaning o‘g‘li Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" ("Do‘stlar yodnomasi") tazkirasida yozilishicha, Xojaning turkiy g‘azallariga Bobur yuqori baho bergan.

“Shayxalixojaning ota bir ona boshqa inisidir.

Bu faqirga deguvchi edilar. ” Kichik yoshimda hazrat risolat panohni – sallolohi alayhi vasallam –voqead ko‘rdim.Muborak qo‘llarini ko‘ksimga qo‘yib , xoylaysanmi , seni mashhurlardan qilaman , dedilar ”.

Shundan biroz muddat o‘tgach Kepak Mirzo ko‘ngliga Soinxon ulusini o‘ziga qaratish istagi keladi va mazkur jamoat aksariyatining Xoja ajdodiga

irodat - e'tiqodi bo'lgani uchun uni o'z rejasini amalga oshirishda vosita qilib, sadrlik lavozimiga tayinlaydi...

Va bu turkiy g'azalini aytib, Bobur podshoh huzuriga yuborgan edilar. Podshohga ma'qul bo'lib, maqtagan edilar. G'azal budir:

Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur,

Kecha ham kabi holimparishon kechadur.

Anbarin zulfung xiyolidin ko'zumga ey pari,

Yilu oyu soatu kun bori yakson kechadur.

Ulki jondin kechadur shomi visolingni ko'rub,

Vah na xush vaqtu naxush soat na oson kechadur.

Ravshan o'lg'ay davlati vaslida hijron oqshomi,

Gar gunohimdan bilib ul mohi tobon kechadur,

Xoja yanglig' nola qil zulfi g'amidin kechalar,

Kim mahalli nolavu faryodu afg'on kechadur. [II.35.273-275 betlar]

Poshshoxoja Bahouddin Naqshband maqbarasi yonida dafn etilgan. Uning "Gulzor" va "Miftohi ul-adl" asarlari O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti va Sankt Peterburg Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Asarlari o'zbek tilida nashr qilingan. Nisoriyning o'zbekcha va forsha she'rlaridan iborat devon tartib bergani ma'lum bo'lsa-da, hozircha topilgan emas, shu sababli shoir lirik merosidan qo'limizda juda oz hajmdagi namunalargina mavjud. Ular asosan, "Muzakkiri ahhob" va Alouddavla Qazviniyning "Nafais ul-ma'asir" (1560-1589),

Badriddin Kashmiriyning “Ravzat uz-Rizvon (1589)” ,Darveshali changiyning “Risolai musiqa” (1572-1604) va Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro” (1605) asarlarida yetib kelgan bir nechta g’azal , ruboiy, bayt va “Bahoriyot” qasidasidir.1985-yilda chop etilgan “Adabiyoti tojik dar asri XVI ” risolasida yanglish holda Nisoriyga bir nechta ilmiy va badiiy asarlar nisbat berilgan , biroq olimlarimizning aniqlashlaricha bu asarlar boshqa bir turkiyalik Nisoriy degan kishiga taaluqli ekan.

1.02. “Muzakkiri ahbob” asarining tarkibi va tuzilishi

XVI asr boshida bo’linib ketgan Husayn Boyqaro davlatining o’rniga Shayboniy, Safaviy va qisman Boburiylar hukumati barpo etilib, har birining o’ziga xos madaniyati rivojlana boshladi. O’rta Osiyoda Shayboniylar homiyligida rivojlanayotgan madaniy hayot dastlab, Muhammad Solih, Xoja, Shayboniy, Afsariy, Vosifiy, Majlisiy, Ubaydiy, Baqoiy, Shaydo, Aziziy, Oshiq, Nisoriy, Mushfiqiy, Naxliy, Xon, Mutribiy singari yirik so’z san’atkorlarini kashf qildi. Ularning har biri o’z asarida shayboniylar davri adabiy muhitini yoritishga harakat qildilar, ammo bu davr adabiy muhitini to’laroq aks ettirish va yoritish o’zbek shoiri va taniqli davlat arbobi, Podshohxoja bin Abdulvahhobxoja oilasida dunyoga kelgan Hasanxoja Nisoriyga nasib qildi. Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” (Do’stlar yodnomasi) tazkirasi Movarounnahr, Afg’oniston, Eron, Turkiya va Hindiston she’r ixlosmandlari, shoir va turli tabaqaga mansub she’riyat ahli ijodi, hayot yo’lini, tarixiy voqealar, tabiat mo’jizalari, mashhur shaharlar Xuroson, Hirot, Buxoro, Eron, Balx, Makka, Isfaxon, Rum, Yamkon va ulardagi me’morchilik namunalarini hikoya qiluvchi qimmatli asardir.

Ushbu tazkira fors tilida 1566-yilning avgust-noyabr oylarida yozib tugallangan, Abdullaxon II ga bag’ishlangan. Asarda 288 nafar Movarounnahr,

Turkiya, Sharqiy Turkiston, Eron, Hindiston va Ozarbayjonda yashagan shoirlar haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. "Muzakkiri ahbob" ***Maqola, 4 bob*** va ***xotima*** qismlaridan tashkil topgan. Maqola qism shayboniylar va temuriylardan yetishib chiqqan shoirlarga bag'ishlangan bo'lib, u o'z navbatida II rukn, ruknlarning har biri II fasldan iboratdir.

Maqola birinchi ruknining birinchi fasli ***"Foniy davlatdan mangulik mulkiga safar qilgan chingiziy sultonlar jamoasi zikrida"*** deb nomlanib, Abulfath Muhammad Shayboniyxon ibn Shoh Budog' sulton bin Abulxayrxonning muqaddas yodi bilan boshlanadi. Bu ruknda Abdulmuzaffar Abdullatif Bahodirxon bin Ko'chkunchixon bin Abulxayrxon, Abdulazizxon bin Abdulg'ozi Ubaydullo Bahodirxon, Abdulmuzaffar Rustam Bahodirxon bin mag'firatul –mabrur hazrat Jonibek sulton bin Xojag'um sulton bin Abulxayrxon kabi shoh va iste'dodli shoirlarning fe'l-atvori xususiyatlari, nasl-nasabi, taxallusi va ijodi bilan yaqindan tanishtiradi.

I rukn II fasl ***"Davlat taxtida o'ltirgan sultonlar zikrida"*** deb nomlanib, Bulfath Sulton Said bin Abusaidxon bin Ko'chkunchixon bin Abulxayrxonning muqaddas yodi bilan boshlanadi. Va bu qism Mu'iniddin Javonmardali Sulton bin Abusaidxon, Saltanat Do'st Muhammad Sulton bin Navro'z Ahmadxon bin Sevinchxojaxon bin Abulxayr Bahodir hamda Avaz G'ozi Sulton G'ozining muqaddas yodini tarannum etadi.

O'zbek va Hindlarning birdek sevimli arbobi, benazir shoir, adolatli podsho Zahiriddin Muhammad Bobur o'zidan so'ng nafaqat moddiy meros, balki, ulkan ma'naviy xazina qoldirdi. Jahon adabiyotida hali hech bir sulola boburiylar singari ham shoxlik ham shoirlikni birdek olib borgan va tanilgan emas. Jumladan, Bobur Mirzo bilan boshlangan ijod sarsilsilasi uning farzandlari Humoyun Mirzo, Komron, Askariy, Hindol hamda Gulbadanbegim davrida, nabiralari Akbarshoxning o'g'li Nuriddin Muhammad Jahongirshoh, Shoh Jahon va uning o'g'li Abu Zafar

Muxiyiddin Muhammad Avrangzeb Olamgir, Boburning chevara bo'g'iniga mansub nafis ijodkor Zebunniso Begim davrigacha davom etadi. Ularning har biri Boburga xos o'tkir qalam sohibi, ammo, o'z navbatida o'z ichki dunyosiga tayanib ijod qilgan adabiyot vakillari edi.

Bobur va Boburiylar sulolasini ko'plab olimlar o'rgandilar. Biz boburiylar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni Boburning "Boburnoma", Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarlaridan olamiz. Shular qatorida, XVI asrning nodir durdonasi "Muzakkiri ahbob"ni e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Ushbu tazkira asosan, Buxoro adabiy muhitini yoritgan bo'lsa-da, asar maqola qismining 2-rukni Bobur va uning avlodlariga bag'ishlanadi.

Nisoriy Boburiylar sulolasiga ayrica ixlos qo'yadi va ular hayotini, fe'l-atvor xususiyatini, nozik qirralarini qisqacha yoritib o'tadi. Muallif, asosan, ularning ijodiga ko'proq to'xtalgan. Tazkira 2-rukning 1-fasli ***"O'tkinchi jahondan mangulik mulkiga ko'chgan Chig'atoy sultonlari zikrida"*** deya nomlanib unda Humoyun, Komron, Hindol va Askariylarning muqaddas yodi haqida gapiriladi va bu qism Zahiriddin Muhammad Boburning muqaddas yodi bilan boshlanadi:

"Chig'atoy sultonlarining eng sarasi va zo'r shijoatlisi edi. Shamshir zarbi bilan Movarounnahr mamlakatlariga ega bo'lib uni saqlab qolishda ko'p sa'y-harakatlar va jonini ayamadan jahdu-jadallar ko'rsatdi. Mardona to'qnashuvlar qildi, ammo, taqdir o'qiga tadbir qalqoni dosh bera olmagach, biror natija chiqara olmadi. Bayt:

On chi sa'y ast, man talabash minabudam,

In qadar hast, ki tag'iyiri qazo natavon kard

(Ne sa'y-harakatlar bor bo'lsa men qildim, biroq taqdir degan narsa ham bor ekanki, yozig'ini o'zgartirib bo'lmas ekan)." [II.35.51-52 betlar]

Boburning Shayboniyxon bilan bo'lib o'tgan janglardan so'ng Kobulga yuzlanishi, Dehlini egallab hind yurtida komron o'tirishi Nisoriy tomonidan fakt sifatida keltirib o'tiladi va uning ijodini o'ziga xos tarzda tarannum etadi:

“ Bobur podshohning fazilatlari bisyor va kamolotlari beshumordir. Aruz bo'yicha yozgan risolasi bir dengizdurkim , ichi to'la javohiru durdona , fiqh masalalarini dag'i bir risolada mubayyan qilgankim, yozg'uvchisi donishmandligidan bir nishona: -turkiy va forsiyda yaxshi she'rlari bor. O'shal fiqh risolasining nomi “Mubayyan ”dir. Va bu mat'la podshohning oliy maqolatlaridandir. G'azal:

Xarobatiyu rindu mayparastam,

Ba olam harchi meguyan hastam.

To ba zulfi siyahash dil bastam,

Az pareshoniy olam ras (Mazmuni: Xarobatiyu rindu mayparastman, olamda nimasan desalar o'shaman. Qora zulfiga dil bog'lagach, olam baxti qaroligidan qutulganman.) ” [II.35.53-54 betlar]

Bundan tashqari, asarda Boburning naqshbandiylik ta'limotiga ayricha nisbati borligi, bobosi va otasining hazrat xoja Ahrorga irodati bo'lgani, Bobur podshohning ham bu ulug'lar xonadoniga izzat-ikromi cheksizligi va barcha darvishlarga lutf eshigini ochib , niyozmandlik yumushini bajo keltirgani to'g'risida ham ma'lumotlar keltiradi. Ushbu ta'limotdagi “Dilba yoru, dast ba kor” shiori Boburga butun umri davomida dilsherik bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tazkirada Humoyun Mirzo nomi hurmat bilan tilga olinadi. Uning aql zakosi, pok yuragi, saxiyligi, shijoat va kurashda tengi yo'qligi ulug'lanadi.

“Yulduzlar sonicha sipohli bu podshohning yoqimtoy zotida eng oliy sifatlar mujassam edi. Jahonboshliq ishlarining ko’pligiga qaramay ilm tahsili va suxandonlik mashg’ulotini ham tark etmas, hamda bade’ so’zlari fasohat va balog’atda yuqori darajaga ega edi. Shirin nutqida “So’zning yaxshisi dalillisidir” mazmuniga ko’ra oz so’z bilan ko’p fikrni bayon qilardi, uzundan-uzoq ma’nilarni inshoda ravo ko’rmasdi. Bayt:

Suzanro poya gar e’zoz naboshad,

Tarzi xil’atash iyjoz boshad

(Mazmuni: So’zning oyog’i sust bo’lmasin desang, kiyinishi ixcham –qisqa bo’lmog’i darkor.)” [II.35.54-55 betlar]

Humoyun turli ilmlarga qiziqqan va bu uning otasi tomonidan qo’llab –quvvatlangan .Xususan, “Boburnoma”da Bobur o’g’lining imlosiga bildirgan tanqidiy fikri buning yaqqol misolidir. Humoyun hayotida ancha qiyinchilik ko’rgan bo’lsa-da she’riyatdan yiroqlashmadi. Nisoriy bu haqda shunday deydi:

“ Goho qalb quvonchi uchun she’r va shuaroga ko’ngil berib , she’r ahlini o’z oliy majlisining qatnashchisi bo’lishga undardi. Va bu durga to’la matla’ uning gavhar sochuvchi guftoridandir. Abyot:

Zi g’ussa sifat tah-batah dilam xun ast,

Ki bovuchidi yake nisbati dunyo chun ast

(G’ussadan dilim g’uncha sifat tah-batah qondir, birinchi qati yetmaganday , ikkinchisi ham shunchadir) ” [II.35.57-bet]

Muhammad Komron Mirzo tazkirada adolatli podsho va nozik ta’bli ijodkor sifatida tasvirlanadi. Nisoriy Komronni “-Uning nomi tangri elchisi nomiga o’xshab Muhammaddir, qanday yaxshi nomli shohdir, xudo haqqi! Chin

shariatning mustahkam iplarini yanada quvvatliroq qilish va o'tgan payg'ambarlarning saidi –olloh rasuli Muhammad alayhissalomning hukmlarini tartib-batartib bajo keltirish yo'lida ko'p sa'y-harakatlar qilardi. Mazlumlarning arz-dodini , kerak-gadikini o'zi so'rardi va ularning devon mahkamasi oldida sarg'ayib turishlariga yo'l qo'ymasdi ” deya ulug'lab uning har ikkala tilda yozgan g'azallaridan misollar keltiradi:

Eshitib husnuning sifotin bo'lmisham zoring sening ,

Yo rab o'lg'aymu muyassar bizga diydoring sening.

Ey Masihodam , yeturgil mujdai vaslingni kim,

O'lgali yetmish firoqing ichra bemoring sening [II. 35.60-61betlar]

Mirzo Askariy takirada xushta'b podshozoda , ilm fazliga katta mayli bor fozil shaxs sifatida tasvirlanib uning g'azalidan misollar keltiriladi:

“To kard xudo ruzi man vodii g'amro,

Dar ishq salohast arabrovu ajamro.

Majnunchu nazar kard sui noqai Layli,

Az didani u kard faromush alamro.

(Mazmuni: Xudo nasibamni g'am vodiysida qilibdi, mayli, chunki, ishq yo'lida arab ham, ajam ham baravar.Majnunning Layli ketayotgan karvon tomon ko'zi tushdi-yu, barcha alamini unutib yubordi.)” [II. 35.64b]

Aka-ukalar ichida Komron bilan Askariy, Humoyun va Hindol ayniqsa ahil bo'lib, ular orasida ba'zan nizo va janglar ham bo'lib turgan.Asosan ,bu kelishmovchiliklar Humoyun va Komron orasida tez-tez yuz berib turardi.Aka-ukalar nizosi sababli bo'lgan janglarning birida halok bo'lgan Hindol Mirzo

chig'atoy sultonlari ichida o'zining saxovati , shijoatliligi bilan barchaga tanilgan edi.Nisoriy Hindol Mirzoni husnixatga ishtiyoqi baland, kitobsevar shaxs sifatida tasvirlaydi.

“Yaxshi ta’bi bor edi.Ushbu ruboiyni yaxshi aytgan:

Zi on qatrai shabnam ki nasimi sahari,

Az abr judo kunad ba sad xiylagari.

To bar uh gul chekonad, ey rashki pari,

Haqqo ki hazor bor pokizatari

(Mazmuni:Sahar nasimi yuz xiyla bilan bulutdan ajratib olib gul yuziga to’kuvchi shabnam qatrasidan ham, ey parilarning rashkini keltiruvchi yor, xudo haqqi ming bor toza-yu tiniqroqsan.)” [II bob.35.64bet]

“Muzakkiri ahhob” da Mirzo Ibrohim hamda Mirzo Abulqosimlar xususida ham gapirib o’tiladi.Bundan tashqari , asarning turli boblarida boburiylar sulolasiga yaqin kishilar xususida ham ma’lumotlar berilgan.Jumladan, I bobning 4-faslida Komron podshoning mahram ko’kaldoshlari va hamdam mahramlaridan Hamdam Ko’ka va Mahram Ko’ka, Bobur va Humoyunning eng yaqin kishilari bo’lmish Bayramxon va Alibeklar ijodidan ham namunalar keltiriladi.

Bobur shaxsi,uning davlat boshqaruv prinsiplari, boshidan kechirgan qiyinchiliklari ,o’z navbatida mehribon va g’amxo’r ota timsoli tazkirada , Humoyun , Komron Askariy, va Hindol tarbiyalari asosida yaqqol gavdalanadi.

Asarning I bobi muallif uchrashmagan va olamdan o’tgan buyuk zotlar haqida hikoya qiladi, 4 fasldan iborat.

II bob shoir uchrashgan, ammo dunyodan o’tgan ulug’lar haqida ma’lumot beradi, 4 fasldan iborat.

III bob Nisoriy uchrashgan va hozir ham hayot tabarruk kishilar haqida bo'lib, 4 fasldan tashkil topgan.

IV bobda tazkiranavis uchrashmagan, hozir hayot zotlar haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Bu bob ham 4 fasldan iborat. Ushbu boblarda shoir tomonidan she'riyatga ixlosmand turli tabaqa vakillaridan birortasi chetda qoldirilmagan. Adabiyot maydoniga o'zining dilbar she'rlari, asarlari bilan kirib kelgan Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Ibn sino kabi noyob fikr egalari, Mavlono bin Ro'zbehonul Isfahoniy, G'oyibiy, Devona Husomiy, Shahzoda Shoh tabib, Xoja Muhammad Ali Tahuriy, Hamididdin Shoshiy, Hidoyat Giloniy, Ahdiy, Shayx Xalillulo, Alibek, Mahram Ko'ka, Xojazodai Qobiliy, Mavlono Hajriy, Sho'xiy, Rafe Tabib, Darvish Maqsud Tirgar, Mavlono Xulqiy, Hofiz Sarviy, Mavlono Ayniy, Amir Humoyun Samarqandiy, Abdulvose, Mir Savodiy, Hofiz Mirak, Mushfiqiy, Mavlono Boboi Balxiy, Abdulla Halvoiylar, Ahmad Yassaviy, Zangi Oto, Shayx Xudoydod singari tasavvuf namoyondalari hayoti va ijodini, qobiliyat va ixtirolarini qomusiy asar sifatida "Muzakkiri ahbob" o'zida mujassam etgan.

I bobning I fasli ***"Keksalik yoshiga yetib vafot etgan va Buxoroda dafn qilingan jamoat zikrida"*** deya nomlanib muhaddislar boshlig'i xoja Mavlono bin Ro'zbehonul Isfahoniyning muqaddas yodi bilan boshlanadi. Ushbu faslda Sayfululamo Kamoliddin Ibrohim Shirvoniy, Mavlono Shavqiy, Volahiy, Majlisiy, Ruhiiy Tabib, Mir Shodiy, Qabuliy Buxoriy, Sokiniy, G'oyibiy, Devona Xusomiy, Mavlono Sodiq, Mavlono Kasiriy, Qavsiy, Husayn Alouddin, Moiliy Sirroj kabi 15 ta shoirlar nomi keltiriladi.

I bobning II fasli ***"Faqir alar mulozamatiga yetishmagan, keksayib vafot etgan va Buxorodan tashqarida dafn qilingan jamoat zikrida"*** deya nomlanib, bu fasl Hazrat Shayx Hoji Muhammad Hamushoniyning muqaddas yodi bilan boshlanadi. Ushbu faslda 41 ta shoir va adabiyotga ixlosi baland turli tabaqa vakillarining nomi keltiriladi. Mavlono Nizomiddin Abulbaqo Hindiy, Xoja

Ziyoiddin Yusuf, Shayx Boyazid Purniy, Saidlar sarasi Shahzoda Shoh tabib , Xoja Muhammad Ali Tahuriy, Mavlono Faxriddin Ali Voiz, Xoja Ayub bin Xoja Abulbaraka , Mavlonozoda Abdulg'affor, Bobo Aynulmulk , Mavlono Muhammad Ali , Mavlono Hamididdin Shoshiy Qozi Said, Qozi Log'ar Seyistoniyy,Xoja Kalonbek , Mavlono Shahobiddin Muammoyi, Fozil andijoniy, Humoyun Iroqiy, shoirlarning eng malohatlisi Vosifiy, Qozi Burhoniddin , Amir Notiqiy, Mir Gisuyi, Hofiz Merosiy, Kamoliddin Lisoniy, Mavlono Lisoniy, Mavlono Haydar Kuluch, Mavlono Solih, Mavlono Kamoliddin Ali Fayziy, Mavlono Toleiy, Darvish Hoshimiy Samarqandiy, Shayx Jamol, Nodiriy Samarqandiy, Nasibiy Andijoniy , Darvish Jamol Qalandar, Devona Nishoburiy , Mavlono Qatiliy, Mavlono Ahmadiy, Mavlono Fardiy, Hofiz Kamol Turbatiy, Mavlono Navidiy Tuniy, Mirzo Ibrohim Joniy, Mavlono Nomiyy, Mavlono Ogohiy nomlari shular jumlasidandir.

I bobning III fasli ***“Faqir alar mulozamatini qilmagan keksalik yoshiga yetmay bu dunyodan ketgan va Buxoroda dafn etilgan jamoat zikrida ”*** deya atalib Kamoliddin Ziyoning muqaddas yodi bilan boshlanadi. Mavlono Sidqiy, Mirzo Maloliy, Mirzo Hindu, Mirzo Qoiliy, Mirzo Kuyiy, Miram Siyoh singari 7 nafar ijodkorlar ijodi o'zgacha qiziqish bilan yoritiladi.

I bobning IV fasli ***“Faqir ularning mulozamatini qilmagan , keksalik yoshiga yetmay vafot etib ketgan va Buxorodan boshqa yerlarda dafn etilgan jamoat zikrida”*** dir. Ushbu fasl Shayx Imodiddin Fazlulloh bin xoja Aloiddin Ali bin xoja Kamoliddin Ne'matullo Buzdoshobodiy at-Tusiyning muqaddas yodi bilan boshlanadi va unda Shayx Abu al-Vajd , Shayx Zaynuddin Amir Asadullo , Nuriddin Muhammad Mirak , Shox Qavomiddin , Bayramxon, Sulton Odil, Muzaffar Barlos, Amir Haydar Alisher, Alibek, Mahram Ko'ka, Hamdam Ko'ka, Mirzo Ulug'bek, Saidshoh Kasbiyi , Mullazodai Lohijoniy, Najmiddin Kavkabiyy, Sangiy, Umidiy Iroqiy, Xajriy, Hajriy Heraviy, Savqiy Anduxidiy, Xojazodai Kobiliy, Abdulvahhob, Mavlono Voqifiy, Shayx Safiddin Nurbaxsh, Sharif

Tabriziy, Qudsiy Termiziy, Mavlono Tolibiy, Mavlono Boqiy, Qozi Rizoiiy, Mavlono Sho'xiy singari 31 nafar ijodkor nomi keltiriladi.

II bobning I fasli ***“Faqir alarni ko’rgan , keksalik yoshida vafot etib , Buxoroda dafn qilingan jamoat zikrida ”*** bo’lib Ulug’lar va shariflar yo’lboshchisi xoja Jaloliddin Hoshimiy –as Siddiqiyning muqaddas yodi bilan boshlanadi. Bu faslda Muhammad Amin Zohid, Shamsiddin Qahstoniy, Mirak Said G’iyos, Xoja Munavvar Mehna, Mirshayx Purniy, Shayx Muayyan Mehna, G’iyosiddin al-Bahrobodiy, Abdulla Mehna, Muhammad Mazid, Xush Muhammad Azizon, Shayx Obid, Hofizi Kalon, Sulton Ali Ubahiy, Hofiz Mirahmad Xatib, Mavlono Mir Ali Kotib, Afsariy, Rafe’ Tabib, Darvish Maqsud Tirgar, Ibrohim Kunda, Xoja Kalon Mahrumiy, Muhammad Qannod, Xulqiy, Mavlono Mahmud, Mavlono Ayniy, Hofiz Sarviy, Hasan Kavkabi singari 27 nafar ijodkor nomi tilga olinadi.

II bobning II fasli Nisoriy ularga mulozamat qilgan, keksalik yoshiga yetib vafot etgan va Buxorodan tashqari yerlarda dafn etilgan jamoat zikridadir. Bu fasl Xoja Nizomiddin Abulhadiy Porsoning muqaddas yodi bilan boshlanadi va unda Asomiddin Ibrohim, Mavlono marhumiy Safiuddin Mustafo Rumiy, Kamoliddin Abulxayr Mir Obid, Qosim Mavdud, Mufazzal Mehna, Kamoliddin Mir Mahmud Bayhaqiy, Shayx Rukniddin Mehna, Shayx Alouddavla, Mahramiy, Amir Muzaffar Turkman, Amir Humoyun Samarqandiy, Hakim Samarqandiy, Mullo Baloiy, Navidiy Nishoburiy, Mavlon Hovariy, Mirak Husayn Buxoriy, Mavlono Shaydo, Abdiy kabi 18 ta ijodkor qayd etiladi.

II bobning III fasli muallif ularni ko’rgan, keksalik yoshiga yetmay vafot qilib Buxoroda dafn qilingan jamoat zikrida bo’lib, unda nomlari qayd etilgan mirak Shayx, Fatxullo xoja qozi, Mirzajon Muhammad Soniy Naymon, Abdulvose’, Mavlono Fazoiiy, Baqoiy, Rohiy, Ziynatiy, Komiiy kabi turli kasb vakillarining adabiy yo’nalishdagi iste’dodlari ham alohida qayd etiladi.

Nisoriy II bobning IV faslini “*Faqir ularni ko’rgan va keksalik yoshiga yetmay vafot qilgan, Buxorodan tashqari yerlarda dafn etilgan jamoat zikrida*” deb nomlab, bu faslda Shayx Abdullatif, Ma’sumxoja, Asomiddin Muhammad Jomiy, amir Mehdi bin Qozi Mahmudul-Husayniy, Mir Savodiy, Xoja Muhammad Vazir, Mirzo Qotiliy, Joniy Yatimbon, Azmiy, Faribiy, Shuuriy singari 10 nafar ijodkor iste’dod qirralari yoritiladi.

III bobning I fasli shoir ular mulozamatini qilgan, keksalik yoshiga yetgan va Buxoroda yashovchi jamoat haqida bo’lib, Shayxulislom xoja Nizomiddin Yaxyo Hoshimiyning muqaddas yodi bilan boshlandi. Bu fasl 18 nafar shoir ijodidan ma’lumot beradi. Ular: Abdulaziz qozi, Abulhasan Vahididdin shayx Mirjon, Husayn Turkistoniy, Mavlono Kepak, Mavlono Abdusamad, Do’st Muhammad, Hofiz Ibrohim, Jamoliddin Qosim, Qosim Mufti, Mir Muhammad Munshiy, Mir Devona Shojamin, Shamsiddin, Nizom Qozi, Surudiy, Safoiy, Kamoliddin, Navidiylardir.

III bobning II fasli Nisoriy ularni ko’rgan, keksalik yoshiga yetgan va Buxorodan tashqari joylarda yashovchi kishilar xususida. Mir Muhammad Bade’ Qozi, Shayx Sharifiy, Shayx Zakariyo Yassaviy, Jamoliddin Ismatullo, xoja Fozil, Xoja Yarko, Hofiz Mirak, Mavlono Solih Mufti, Mir Fahmiy, Shujoiddin Do’stmuhammad Hoji, Qozi A’ziziddin Kasbiy, Nodirbek Sadr, Shayx Muhammad Tohir kabi 13 nafar ijodkor faoliyati yoritiladi.

III bobning III fasli Buxoroda yashovchi, keksalik yoshiga yetmagan, ammo Nisoriy ular mulozamatini qilgan adabiyot ahli zikridadir. Bu fasl Muhammad Boqir Yamaniy, Sadriddin Muhammad, Said Hodi Naqshbandiy, Said Ibrohim, Muhammad Amin Mufti, Mavlono Abulhakim, Mirzo Mashhadiy, Mirzo Ahmad, Mir Mufti, Mir Tabib, Xoja Abdussalom, Mavlono Habibullo, Hoziriy, Mahramiy, Yaqiniy, Naxliy, Najotiy, Ma’sumiy, Donishiy, Sururiy, Savtiy, Farqiy kabi 22 nafar Buxorolik shoirlar haqida ma’lumot beradi.

III bobning IV faslida 10 nafar ijodkor haqida ma'lumot berilib, bu faslda keksalik yoshiga yetmagan, Nisoriy ularni ko'rgan va Buxorodan tashqarida yashovchi jamoat zikridadir. Bunda Xoja Husayn Marviy, Mirzo Boqiy, Mirzo Do'st Muhammad, Qabuliy, Mushfiqiy, Sabriy, Niyoziy, Qosim Arslon, Murohiy, Sahmiylar nomlari keltirib o'tiladi.

IV bobning I fasli Buxoroda yashab turgan , keksalik yoshiga yetgan, ammo, shoir ular mulozamatini qilmagan ijod ahli to'g'risidadir. Bu faslda 3 kishi: Mirzo, Xoja Muhammad, va Yoriy haqida qisqacha tavsif berib o'tiladi.

Muallif IV bobning II faslida o'zi ularning mulozamatini qilmagan , keksalik yoshiga yetgan , ammo, Buxorodan boshqa yerlarda yashab turgan 12 nafar jamoat hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi. Mu'iniddin, Shayx Xalillo, Qosim Kohiy, Vosiliy, Mansuriy Tabriziy, Shafe'iy, Nihoniy, Furug'iy, Abdusamad, Behudiy, Ravnaqiy, Qudsiy Farg'onagiy shular jumlasidandir.

IV bobning III fasli ***“Faqir ularni ko'rmagan va keksalik yoshiga yetmagan , Buxoroda yashovchi jamoat zikrida ”*** bo'lib, 6 nafar so'z vakillari xususida ma'lumot beradi. Ushbu fasl Qozi Said Xarroziyning muqaddas yodi bilan boshlanib , Ahdiy, Tohir Qozi, Pirmuhammad, Shukriy, Nodiriylar zakovat quvvatini yoritgan.

Va nihoyat, IV bobning IV fasli ***“Faqir ularni ko'rmagan va keksalik yoshiga yetmagan , Buxorodan tashqari joylarda yashovchi jamoat zikrida ”*** deb atalib, Hasanxoja Naqshbandiy, Amir Boqiy Kosoniy, Muhammad Sharif Sadr, Hidoyat Giloniy, Mir Ollohiy, Yusuf Xatoiy, Boboyi Balxiy, Fayziy Navshod, Abdulla Halvoiy , G'azzoliy Mashhadiy, Zarifiy kabi 11 nafar ijodkor haqida ma'lumot beradi.

“Muzakkiri ahbob”ning Xotima qismida Nisoriy she'riyatga ixlosi baland, ijodkor qarindosh-urug'lari ijodidan namunalar keltiradi, hayot yo'li haqida

ma'lumot beradi. Ular ijodidan misollarni keltirib, ularning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik qarashlarini namoyon qilgan.

Xotima qismda Nisoriyning ota-bobolari, amakilari hamda qaridosh-tuqqanlari haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu qism Abdulvahhobxojaning muqaddas yodi bilan boshlanib, uning o'g'illari shayx-Alixoja bin Abdulvahhobxoja, Podshohxoja bin Abdulvahhobxoja, Bobojonxoja bin Abdulvahhobxoja haqida, Abdusalomxoja bin Podshohxoja, Boboxoja bin Podshohxoja, Valiullohxoja bin Mirimxoja ibn Shayxalixoja, Shohimxoja bin Podshohxoja haqida ma'lumot beradi.

Muallif kitob tugashida shunday deydi:

Bahamdulloh ki shud in nomayi nomi,
Nizome yoft az nazmi Nizomiy.
Chu lutfi Xusravi husni Hasan dod,
Ba lafzi Hofiziy malfuz o'ftod.

Mazmuni:

Shukrkim, bo'ldi bu dovrugli noma tamom,
Topibon Nizomiyning nazmidan bir nizom.
Xusraviy lutfdan husni zebo bo'ldi aning,
Hofiziy lafzdan tili burro bo'ldi aning.

“Muzakkiri ahbob” bizga mahoratli tarjimon Ismoil Bekjon tarjimasi orqali yetib kelgan. Tarjimonning aytishicha, hozircha asarning dunyo qo'lyozma xazinalarida mavjud 14 nusxasi ma'lum. 1969-yilda Pokistonda 1 ta Angliya va 3 ta Hindiston nusxasi asosida tazkiraning ilmiy-tanqidiy matni ham tuzilgan.

Nisoriyning yana bir e'tiborga molik xizmatlaridan biri shuki, u ayol shoirlar ijodiga qiziqib ijodidan namunalar keltiradi. Ulardan biri Hisorlik

Ulouj nomli va qolgan 2 nafari nomi berilmagan Buxoro va Badaxshonlik shoirlardir. Muallif garchi ular nomini sarlavhada keltirmasada, ammo shoirlarga baho berishda ularning yoshi yoki martabasini emas, balki, dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasi, xayrli ishlarini hisobga olgan, insoniylikni ustun qo'ygan.

Tazkirada Toshkentlik ijod ahli xususida ham alohida to'xtalib, ular hayotining Buxoroyi Sharifga, adabiy muhitga daxldor qismlari tilga olinadi. Bu haqida asar tarjimoni Ismoil Bekjon shunday deydi:

“Muzakkiri ahbob” muqaddimasida Do'st Muhammad bin Navro'z Ahmadxon nomi tilga olinib, ijodidan namuna beriladi. Boshqa toshkentlik shoirlar haqidagi ma'lumotlar esa tazkiraning turli bob va fasllaridan o'rin olgan. Muallif so'ziga qaraganda, ulardan Mavlonozoda Abdulg'affor Toshkandiy, mavlono Hamididdin Shoshiy tazkira yozilgan 1566 yildan burun vafot etib, Toshkentda dafn qilinganlar. Toshkentning Turbat qishlog'idan chiqqan mavlono Abdussamad esa, ilmlar bo'yicha nom qozonib, Qashqar, Buxoro kabi o'lkalar madrasalarida ham dars o'qitish bilan shug'ullangan. «Muzakkiri ahbob» muallifi mazkur mavlono Abdussamad bilan qalin do'st bo'lib, u tazkira yozilgan 1566-yillari keksalik yoshiga yetgan ekan. O'sha paytda yana bir keksalik yoshiga yetgan, ammo Nisoriy ko'rmasa-da, u bilan xat yozishib turgan toshkentlik ijodkor qozi Mir Toshkandiydir. Tazkirada bu she'riyat ixlosmandi asarlaridan namuna keltiriladi. Mirzo Najotiy Toshkandiy esa, 1566 yili yosh yigit bo'lib, Buxoroga kelib tahsil olayotgan va Nisoriy bilan yaxshi tanish ekan.

Mutribiy ikkala tazkirasida ham bir necha toshkentlik shoir haqida noyob ma'lumotlar havola etadi. U 1626 yilning dekabrda Lohurda Jahongir podshoh bilan uchrashadi va yana 4 oy davomida bu boburiy hukmdor uyushtiradigan oqshomgi she'riyat yig'inlarida qatnashadi. Shu kechalardan birida Jahongir bin Akbar Hindistonga Movarounnahrda fozil kishilarni taklif qilish maqsadi borligini

bildiradi va Mutribiydan, ana shunday kishilarni tanisa, tavsiya etishini so'raydi. Mutribiy bilan Hindistonga borgan o'g'li Muhammad Ali podshoh iltifotiga loyiq kishi sifatida Sobir bin Hofiz Ko'hakiy Toshkandiy nomzodini ko'rsatadi. Shunda Jahongir o'zining 9 yasharlik payti otasi Akbar huzurida Hofiz Ko'hakiy Toshkandiy bir necha bor ko'rganini aytadi. O'sha chog'da Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasida muallimlik qilgan Sobir Toshkandiy Imomqulixon davlatining qozi askarlik lavozimiga ko'tarilgan ekan. Mutribiy yozishicha, Sobir Toshkandiy barcha ilmlarni otasi qoshida Toshkent shahrida o'zlashtirgan.

"Muzakkiri ahbob" muallifi toshkentlik olim, fozil va shoir kishilar vasfu ta'rifini quyidagicha keltiradi:

"Saltanatdo'st Do'st Muhammad sulton bin Navro'z Ahmadxon bin Sevinchxojaxon bin Abulxayr Bahodirxonning muqaddas zikri. Yaxshi xislatlari ko'p podshohzodadir. Latif tab'i shijoatga moyil va olimu fozillar suhbatiga jonu dil bilan hozir. Oliy majlisini bu toifadan xoli o'tkazmaydi, shoir-u nadim kishilar ham uning oliy yig'inida hoziru nozir. Ko'ngil quvonchi uchun gohida she'r va nafosat maishatiga ham mayl bildiradi. Va bu baytni uning latif she'ridan sanaydilar.

Bayt:

Nofayi on xoli mishkin ohuyi Chin chun bidid,
Az xijolat po'st po'shidu rahi sahro girift.

(Mazmuni:

Chin ohusi ko'rib ul mishkinxol tarovatini,
Uyatdan teri yopindi-yu, ixtiyor etdi sahroni.)»

"Mavlonozoda Abdulgʻafforning muqaddas yodikim, ul zot Toshkand viloyatining ashraflaridan boʻlib, bir necha vaqt oʻsha shaharda qozilikning oliy mansabiga munosib ravishda ish olib borgan. U ilmu fazilatlar kasb etgan kishilardan sanaladi. "Faroiz"-ni yaxshi nazm qilgan. Puxta sheʼrlari va shirin soʻzlari bor. Va ushbu matla'si ham koʻp mashhurdir.

Matla':

Az ramad gar didayi mo dardi behad gard kard,
In ki mahrum az jamolash kard moro dardi gard.

(Mazmuni:

Chang koʻzimizni ogʻritib, dardini behad ham etdi,
Bu gard dardi bizni yor jamoliga nomahram etdi.)

Va bu matla'ni ham Mirzo Jovam haqida koʻp eʼtiborga sazovor darajada aytgan.

Matla':

Bahri dil burdan ba masjid omad on ra'novu mast,
Na'ra az arbobi din omad barun: k-in jo u mast?

(Mazmuni:

Dil oʻgʻirlay deb masjidga ra'novu mast kelibdir,
Din ahlidan chiqdi sado: buyona u mast kelibdir?)

(Ikkinchi misra'dagi **"in jo u mast"** soʻzlari arab alifbosida **"in jo(v)amast"** koʻrinishiga ham ega boʻlib, birinchisida **"bu yerda u mast?"**, ikkinchisida **"bu Jovamdir"** ma'nolarini beradi.)

Mavlonozoda Abdulgʻaffor Toshkandiy shunchalik fazilatlar egasi boʻlishiga qaramasdan, keyinchalik uni qozilik mansabidan tushirganlar..."

«**Mavlono Hamididdin Shoshiyning muqaddas yodi.** Odamlar uning muborak majlisi va shirin suhbatini orzu qilisharkan. She'rlari kishi hissiyotida tugʻyon qoʻzgʻatuvchi va gaplari shakar sochuvchidir. Bu ikki bayt uning malohatli kalomidan.

Bayt:

Agarche bongi nay az had barun asar dorad,
Lek nishonai may holati digar dorad.
Ba har gule ki nazar mekunam dar in gulshan,
Chu lola dogʻi gʻami ishq bar jigar dorad.

(Mazmuni:

Nay tovushi gar haddan ziyod etsa ta'sir,
May oʻzgacha alomat ila etar bizni asir.
Qay gulga solsam nazar bu gulshanda bir-bir,
Loladek yuragida ishq gʻami otashidir.)

Mavlono Hamididdin Shoshiy Toshkandda vafot etgan, qabri ham oʻsha yerda...».

Olimlar sarasi mavlono Abdussamadning muqaddas yodi. Mavlono Abdussamad Toshkentning Turbatidandir. Uzoq yillar Toshkent shahrida ilm o'rgatish ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Va "Oллоh uchun haj va umrani ado eting" karim oyati mazmuniga ko'ra sharif haramlar tavofiga yuzlanib, tavof sharafiga musharraf bo'lib qaytgandan so'ng ham yana Toshkandda ancha fursat turg'un qolib, dars o'qitish bilan shug'ullanib yurdi. Garchi ilmlarda juda oldingilar qatorida bo'lmasa ham, ammo hech bir ilmdan bebahra ham emas. So'ng yana bir marta benavo ushshoq kabi Hijoz ohangini qilib, yo'li Qashqar taraflarga tushdi...U yerdan qaytib kelgach, Buxoroda sokin bo'ldi. Sharif zoti shuncha ilmu-fazilatlar egasi bo'lishiga qaramay, anduhu mehnat azobi va yana allaqanday balolardan ham quruq qolmagandi... Mavlono nujum ilmidan ham sohibi vuquf olimdir. Ammo, zikr etilgani kabi, tole' yulduzi rioyatu shafqat avji sari yuqori ko'tarilmagan... Mavlono Abdussamad hozir oliy hukmdor Iskandarxon-ilohim mulki abadiy bo'lsin-buyrug'i bilan Hofiz Devon madrasasida dars o'qitish bilan mashg'ul. Yaxshi she'rlari va yoqimli so'zlari bor. Bu matla' esa mazkur mavlononing rangin kalomidan.

Matla':

Turo bar rui gul hargah zi sunbul soyabon o'ftad,
Baroyad az dilam ohe ki otash dar jahon o'ftad.

(Mazmuni:

Sen gulyuzlik boshi uzra sunbul bo'lsa soyabon,
Dilimdan chiqqan oh otashi ichra qolar jahon.)

Mirzo Najotiy Toshkandning taniqli kishilaridan. Tahsil uchun bu xayrosor diyor Buxoroga keldi. Yaxshi tab'i bor. Bu bayt uning rangin so'zlaridan.

Bayt:

Meguzorad vaqf bar oyot rui mushafash,
Dar dovoti g‘uncha dorad surxii bisyor gul.

(Mazmuni:

Mushaf yuzi oyatlarin ajratar gullik belgi,
G‘uncha dovotdan, chun, chiqar qizil gul rangi.)

Qozi Mir Toshkandiyning chiroyli zikri. Qadimdan Toshkent viloyati qoziligi alar jamoatiga mansub va hamisha saxovat, karam ko‘rsatish xislati bu xonadon ahliga yor bo‘lib kelmoqda. Qozi Mir janoblarining jamoati o‘zlarining maqtoqli sinovdan o‘tgan axloq-atvori bilan mashhurdir. Sultonlar ul zotga e'zoz-ikrom ko‘rsatadilar. Janobi Mir fazilatlarning ko‘pi bilan bezangan va bir necha muddat Samarqandda arjumand olim mavlono Ahmad Jand darslarida ilm oldilar. Tariqatda kubraviya yo‘lini tutganlar. Ushbu g‘azal ul kishi qalamiga mansubdir.

G‘azal:

Zi hijron be saru somonam imro‘z,
Be jon az mehnati hijronam imro‘z.

Chu guyi afganda dar ko‘yi tuam charx,
Az on sargashtayi davronam imro‘z.

Zi suzi ishq i on mohi jahongard,
Ba gardun merasad afg‘onam imro‘z.

Zi man gar xo‘rdaii biniy, makun ayb,
Ki man masti mayi jononam imro‘z.

(Mazmuni:

Beqaror etmish meni hijron bugun,

Hijron etmish meni bejon bugun.

Chovgon to'pidek ko'yingda urib charx,

Shundan men sargashtayi davron bugun.

Olam kezugvchi ul oy ishq i o'tidan,

Yetar falakka cheksam afg'on bugun.

Ayb etma, maydagap ko'rsang gar meni,

Mast etmish meni mayi jonon bugun.)

Faqirning bu kitobi sharif nazarlariga yetishgach, ushbu ruboiyni yozib yuborgan edilar. Duo libosidagi kishi bo'lgan-lari uchun uni tabarruk o'rnida tazkiramizga qo'shimcha qilindi. Ruboiy ushbudir:

In nusxayi dilgusho ki omad ba nazar,

Kard az dili man mehnati ayyom badar.

Dorem tama' on ki ba ro'zi mahshar,

Yobad nazari qabul az xayri bashar*.

(Mazmuni:

Yetishib biza bul ko'ngil ochar kitob,

Quvdi dildan turmush g'amin shu tob.

Qiyomatda topsin u qabul nazarin

Bashar a'losidan, yetishib ko'p savob...) ”

Tazkira badiiy, tarixiy, geografik ma'lumotlarga boyligi bilan qimmatli va noyobdir. Asar bizga ko'plab mashhur shaharlar, madrasalar va ziyoratgohlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Ayni shu ta'riflarni tahlil qilish jarayonida biz o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy holatidan va ma'lum ma'noda siyosatidan ham xabardor bo'lamiz. Masalan, maqola I ruknining I faslida Shayboniixonning jiyani Abulg'ozi Ubaydullo Bahodirxonning muqaddas yodida shoir Buxoro shahri haqida alohida to'xtalib o'tadi:

“Buxoro qadimiy shahar bo'lib, tegrasi ulkandir. Beshinchi iqlimdan deb hisoblaydilar. Zuhroga taaluqlidir. Turli-tuman mevalarga boy o'lka. Ayniqsa, qovuni juda shirin bo'ladi... Buxoro yerining masofasi o'n ikki-yu o'n ikki farsangdir. Ekilmaydigan tashlandiq yer unda juda oz. Buxoroning dastlabki fath etilishi hijriyning 54-yili sodir bo'lganki, bu sahobalar –tangri ulardan rozi bo'lsin- davriga to'g'ri keladi. Ammo undan so'ng buxoroliklarda (dindan qaytish) ro'y bergan. Va ikkinchi fath hijriyning 74-yili sodir bo'lgan.” Tarixi Jahonkusho”da keltirilishicha, Buxoro qubbatulislomlikning mashriqiy shaharlaridan biridir. O'lkadagi nohiyalar orasida Buxoro “madinatul-islom”-islom shahri maqomida turadi. Buxoro so'zining kelib chiqishi mug'lar tilida “ilmlar” (“ilmgoh”) ma'nosini anglatuvchi “Buxxor” kalimasidandir. Shaharning asl nomi Lumijkat bo'lgan...” [II.35.26-29 betlar]

Yuqoridagi fikrlarda biz Nisoriyning Buxoro haqidagi aniq va asosli dalillarni, Buxoro toponimining izohini berishi, buning uchun ko'pgina manbaalardan foydalanganini va buni qayd etib o'tganini ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu qadim shahar xususida mashhur tarixchi olim Narshaxiyning “Buxoro Tarixi” asari qanchalik qimmatli bo'lsa, “Muzakkiri Ahbob” ham shunday qiymatga ega desak mubolag'a bo'lmaydi.

Nisoriy Boburiylar sulolasi vakillariga ayrica ixlos qo'yib 1556-yili Hindistonga Humoyun huzuriga o'tlanadi. Ammo Humoyunning tasodifan vafoti

tufayli bu safar shoir uchun bir umrlik orzu bo'lib qoladi. U Mirzo Bobur va uning vorislari ijodi va hayoti xususida fikr yuritarkan qadim Hind o'lkasi iqlimoti, hayvonot va nabototini juda jonli qilib tasvirlaydi.

“Hind juda azim o'lkadir. Hind va Sind aka-uka bo'lib, Xom bin Nuh alayhissalom avlodidan ekan. Hind turli xil ajoyib –g'aroyib hayvon va qushlar juda ko'p bo'ladi... Hindistonning chekka yurtlarining birida bir joyida oltin

bo'lakchalari qum bilan qorishgan holda bo'ladi. U yerda kata-katta chumolilar ham bor bo'lib, ustidan issiq suv sepsalar bu chumolilar uyalariga kirib ketadilar, odamlar esa fursatdan foydalanib tezlik bilan tillolarni terib, olib qochadilar

Hind xalqining aqidalaridan biri shulkim, mamlakat podshohi Qobulni ham olmaguncha, u Hind yurtiga loyiq emas, deb topiladi...” [II .35.52-53 betlar]

Biz Boburiylar sulolasi va azim Hind o'lkasi haqidagi g'aroyib va muhim ma'lumotlarni Boburning “Boburnoma” singari memuar, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” “Avlodlar dovoni” asarlari orqali bilib olishimiz mumkin. Garchi, Nisoriy bu kabi shaharlarning hammasida bo'lmagan bo'lsada, ular haqidagi ayni haqiqatlarni keltirib o'tganiga qoyil qolmay ilojimiz yo'q.

Nisoriy VII asrda Islom dinining yuzga kelishi bilan nufuzi benihoya oshgan Arabistondagi muqaddas istehkom Makkaning tuzilishi, uning o'ziga xos sir-sinoatlari haqida o'zining taasurotlarini va hayratini yashirmay bayon etadi. Bilamizki, o'sha zamonda bo'ynida gunohi bor yoxud bu dargohga ixlos qo'ygan kishilar Makkani ziyorat qilganlar va bu haqida tazkirada Komron Mirzo xususida fikr yuritganda ham alohida ta'kidlab o'tadi.

“Makkai muazzama tog' etagidagi vodiya joylashgan va binolari qora toshlardan qurilgan. U yerning ajoyibotlaidan biri bukim, bo'ri ohuga chang solsa, ohu haramga qochib kirsa, unga tegmaydi. Masjidul harom ikkinchi xalifa-

tangri undan rozi bo'lsin-zamonida qurilgan.Uzunasi 370 ziro'(tirsak), eni 315 va sathi 32,5 jarib.Masjid oralig'i434 dir.Ka'ba masjidul-harom o'rtasida joylashgan.Murabba' shaklida.Eshigi Mashriq tomonda bo'lib, yerdan biro dam bo'yicha balandlikda joylashgan,ikki tavaqali,uzunligi 6 tirsagu 10 barmoq,eni 3 tirsagu 18 barmoq.Eshik oltin qorishiq kumush zarhal qopqa bilan qoplangan.Ka'ba uzunligi24 tirsak,eni 23 tirsak,balandligi 27 tirsakdir...Ka'ba ajoyibotlaridan biri shukim,qush kaba ustidan uchib o'tmaydi,agar xonaga juda yaqin kelsa, bir tomonga itarilib ketadi.Agar yomg'ir Ka'baning bir tomoni devoriga yog'sa, o'sha tarafdagi o'lkalarda arzonchilik va xurramlik bo'ladi..."[II .35.67 b]

“Muzakkiri Ahbob” nafaqat o'z davrining qimmatli asari, balki bugungi kunda ham qomusiy asar sifatida chuqur o'rganilmoqda.Garchi ushbu tazkirada asosan shoir-u fuzalolar haqida gapirilgan bo'lsada,tarixiy joy va inshootlar ta'rifi mukammal keltirilgan. Eron, Xuroson, Isfaxon, Yamkon, Balx, Eron,Samarqand,Xuroson kabi o'lkalar adabiy hayoti vakillari ijodi hamda ayrim masalalarni to'liq yoritgan.

Asarni o'qigan har bir o'quvchi dunyoqarashini ma'nan,bilimini har sohada boyitishiga ishonamiz.

II bob "Muzakkiri ahhob" da adabiy hayot talqini

2.01. Buxoro adabiy muhiti Nisoriy talqinida

Mana necha ming yildirki, Buxoroyi Sharif dunyo tamaddun beshigini tebratgan buyuk qo'l sifatida madaniyat, san'at, arxitektura, badiiy adabiyot markazlaridan biri bo'lib kelmoqda. Turli davr sahnalarida o'zligini saqlab qolgan bu buyuk zamin necha-necha buyuk daholarga qo'nim bo'lmadi, ularning gurkirashida bir unumdor tuproq bo'ldi misol. Ustoz Oxunjon Safarov aytganlaridek: "Buxoroda qadim ul-ayyomdan uch tilda badiiy va ilmiy ijod rivoj topib keldi. Rost, arablar istilosiga qadar Buxorodagi adabiy harakat qanday kechganligi haqida hozircha biror nima deyish qiyin, lekin islom qabul qilingandan keyin o'tgan salkam o'n to'rt asrlik tarix davomida Buxoroda uch mingdan ziyod turfa darajadagi iste'dodli qalamkashlar yashab, badiiy ijod bilan shug'ullanganliklari ilmiy–tarixiy manbalardan ma'lum. Ular orasida jaxonshumul shuhrat qozongan muhaddis va mutasavvuflar Imom Ismoil Buxoriy, Abu Havsi Kabir, Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Orif Mohitobon ar-Revvari, Bahouddin Naqshband, buyuk muarrixlar Muhammad Narshaxiy va Hofiz Tanish Buxoriy, tib ilmining asoschisi va buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino, fors – tojik adabiyotining asoschisi, malik ul-shuoro Abu Abdullo Rudakiy, fors – tojik adabiyotidagi ilk tazkira – "Lubob–ul-albob", ("Bilimlar mag'zi")ni yaratib tazkiranavislikka asos solgan Jaloliddin Muhammad Avfiy Buxoriy, shoirlar Am'aq Buxoriy, Xoja Ismat Buxoriy, Abdurahmon Mushfiqiy, "Muzakkiri ahhob" ("Do'stlar yodnomasi") tazkirasi muallifi Hasanxoja Nisoriy, Qul Ubaydiy (Ubaydullaxon), Turdiy Farog'iy- Buxoriy, Mujriy–Obid, Ahmad Donish, Abdulqodir Savdo, Shamsiddin Shohin, Mulla Qurbon Fitrat Vardonzehiy, Sadr Ziyo, Sharifjon Mahdum, Rahmatulla Vozeh, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Abdulvohid Munzim, Jalol

Ikromiy, shuningdek, shashmaqom nazariyotchilari Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali, sharq miniatyurachiligida Kamoliddin Behzod an'analari davomchisi sifatida tanilgan va Buxoro miniatyura maktabiga asos solgan Mahmud Muzahhib singari shuhrati Vatanimiz sarhadlaridan tashqarida ham poydor bo'lgan san'atkorlar bor.

Ta'kidlash joizki, o'zbek adabiyotshunosligida Xorazm va Qo'qon adabiy muhitlari tarixi bir qadar ishlanganligiga qaramay, Buxoro adabiy muhitining bir yarim ming yillik boy tarixga oid mukammal va yaxlit tadkikot hozirgacha yaratilgan emas. Buning sabablarini turlicha izohlash mumkin. Shunga qaramay, buxorolik ijodkorlarning aksariyati zullisonayn bo'lgan, goho zamon zayliga ko'ra o'z ona tilisida emas, balki hukmron mafkura tazyiqi bilan faqat arab tilida ijod etishga majbur bo'lgan. Bu jihatdan "Yatimat –ut dahr" tazkirasida qayd etilgan 40 ga yaqin buxorolik arabiynavis shoirlar qismatini eslatish kifoya. Yoki somoniylar saltanatida fors-tojik tili nufuzining oshuvi tufayli nuqul shu tilda asarlar yozish an'anaviy tus olganini ham inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, buxorolik ijodkorlarni asarini qaysi tilda yozganiga qarab, alohida olingan bir adabiyotning namoyondasi sifatida baholash ham u qadar to'g'ri emas. Zero, bunday yakkash baholash hamma vaqt ham tarixiy haqiqatni to'g'ri ifodalamaydi. Aytaylik, Xoja Ismat Buxoriyning fors-tojik tilidagi devonidan tashqari yana turkiy tilda "Ibrohim Adham" dostonini va bir qancha g'azallarni bitgani ma'lum. Yoki Abdulqodir Savdoning turkiy tilda bitgan bir nechta g'azali Dushanbeda bosilgan "Muntaxabot" to'plamida berilgan, qolaversa, hanuzgacha bahsli bo'lsa-da, har qalay uning o'zbekcha devoni borligi haqida ham taxminlar yuradi. Aksincha, Mujrim-Obidning tojikcha g'azallari ham bor. Qul Ubaydiy esa turkiy, forsiy va arabiy tillarda she'rlar bitib, uch devon tuzgan va ularni bir muqova ostiga kitobat qilgani ma'lum. Qolaversa, nuqul fors-tojik adabiyoti namoyondasi sifatida o'rganilayotgan Sayido Nasafiy ham, nuqul o'zbek adabiyoti namoyondalari tarzida karalayotgan Mulla Qurbon Xiromiy va Ochildimirod Miriylar ham aslida Buxoro adabiy muhitida shakllangan so'z

zargarlari edilarki, endilikda tarafkashlik bilan o'ylab chiqilayotgan u yoki bu mahalliy adabiy muhit vakili sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asossiz ekanligi to'g'risida o'ylab ko'rmoq adolatdan bo'lur edi. Holbuki, bu Prezidentimiz I. A. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" (1997) asarida ilgari surgan "O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloq ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylikning chambarchas bog'liq bo'lgan hodisa"ning bir butunligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, Buxoro adabiy harakatchiligini butun murakkabligi bilan O'zbekiston adabiyoti tarixi tarkibida o'rganish va baholash nafaqat milliy istiqlol mafkurasi, balki "Turkiston – umumiy uyimiz" harakatining maqsadi va manfaatlariga to'la-to'kis mos kelishini yodda tutmoq lozim..."

Buxoro adabiy muhitining XVI asr sahnasi ijodkorlarini to'la yoritgan asar sifatida e'tirof etilgan "Muzakkiri ahbob" Buxoro adabiy harakatchiligi mumtoz davri xususida bizga ko'plab ma'lumotlarni beradi. Nisoriy "Muzakkiri ahbob" tazkirasida Buxoroni sarchashma shahar qilib belgilaydi va asar boblarida ham ijodkorlarni Buxoroda istiqomat qilgan va qilmaganiga, keksalik yoshiga yetgan yetmaganiga, Buxoroda dafn qilingan va qilinmaganiga hamda ularning mulozamatini qilgan, qilmaganiga ko'ra tavsiflaydi. Jumladan, I bobning 1-fasli keksalik yoshiga yetib vafot etgan va Buxoroda dafn qilingan jamoat zikrida bo'lsa, ayni shu bobning III fasli muallif ular mulozamatini qilmagan keksalik yoshiga yetmay bu dunyodan ketgan va Buxoroda dafn qilingan jamoat zikridadir. Bundan tashqari, 2-bobning 1-fasli va 3-fasli, 3-bobning 1-fasli va hamda 3-fasli, 4-bobning 1, 3-fasli Buxoroda hozir ham yashab turgan va muqaddas qabrlari shu shaharda joylashgan kishilar to'g'risida. Asar I bobining 1-faslida 17, 3-faslida 7, II bobning 1-faslida 26, 3-faslida 3, III bobning 1-faslida 18, 3-faslida 22, IV bobning 1 va 3 faslida 6 nafar hayoti va ijodi Buxoro bilan bog'liq bo'lgan asli

Buxorolik va bu yerga boshqa o'lkalardan taqdir taqozosi bilan kelib shu hududda umrining oxirigacha qolib ketgan va yashayotgan ijod ahli haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Jumladan, Shirvoniy, Foni, Shavqiy, Volahiy, Majlisiy, Mavloni Ruhiiy Tabib, Mir Shodiy, Kasiriy, Kamolliddin Ziyoiy, Sidqiy, Maloliiy, Mirzo Hindu, Qoiliiy, Kuyiiy, Miram siyoh, Shamsiddin Qahstoniy, Mirak Said G'iyos, Xoja Munavvar Mehna, Mirshayx Purniy, Abdulvose', Rohiiy, Ziynatiiy, Komiiy, Shayx Xalillulo, Mansuriy Tabriziiy, Shafe'iiy, Behudiiy, Ravnaqiiy singari shoirlar adabiy-estetik qarashlari, ijodiy mahoratlari zo'r qiziqish bilan yoritiladi.

Nisoriy I bobni muhaddislar boshlig'i Isfahoniyning muqaddas yodi bilan boshlaydi. U kishini Isfahonning dovruqli kishilaridan deya tasvirlab hadis kitoblarini sharhlashda va forsiy tilda tafsir yozishda benazirligini tan oladi. Isfahoniy darvishlik masalalari bilan shug'ullanib, jahriya tariqatini kanda qilmagan. Hatto, muallif o'zining nomini ham shu kishi qo'yganini, xoja buzurgvor nomi Nisoriyga baxt olib kelishini, shu munosabat bilan qo'lida hamon saqlayotgan xatidan Isfahoniy yozgan qit'ani o'qib beradi:

“Xocha Hasan naqdi dili Podshoh ,

Xoja Bahouddin kunamash nom man.

Soniy on hojayi abror bod,

“Abnatuhu alloh nabotan Hasan”.

(Mazmuni: Hasanxoja podshohxoja qalbining bir parchasi, unga xoja Bahouddin deb ot qo'yaman. Ul yaxshilar xojasining ikkinchisi bo'lsin va Olloh uni ko'rkam o'stirsin") [II.35.68-b]

Bugungi kunda Isfahoniyning muqaddas qabri Xiyobon ko'chasida.

Nisoriy Buxoro adabiy muhitini shu qadar teran yoritadiki, bu shahardagi turli kasb egalari ham hatto, ijod bilan shug'ullanishini , noyob gavhar singari baytlari borligini ta'kidlab, bunga misollar keltiradi. Fathullo xoja Qozi G'ijduvon Oliyqadr qoziligi mansabida turishiga qaramay, o'ta kamtarin bo'lganini, dilni o'g'irlovchi baytlar ham yozib turganini aytadi:

“Zi ashki lolagun domani man dar bog’ po’rgul shud,

Maro to domani gul didu bulbul betahammul shud.

(Mazmuni:

Lolarang ko’z yoshimdan etagim bog’ aro gulga to’ldi,

Meni gul yonida ko’rib bulbul yuragi esa sabr-toqatsizlik ila to’ldi)”

[II.35.88b]

Umrining oxirida kasbini tashlab darveshlik maqomini tutadi, qabri G'ijduvonda.

Bundan tashqari, tazkirada naqqoshlik san’ati bilan shug'ullanuvchi Mavlono Ziynatiy, to’quvchilik bilan shug'ullanuvchi Mavlono Komiy, kasalliklarni davolashda qo’li yengil bo’lgan Mavlono Ruhiy Tabib, kuluchapaz Mavlono Haydar Kuluch, e’tiborli savdogarlardan Husayn Alouddin, asli kasbi najjorlik bo’lgan Mavlono Kasiriy, tib ilmining barcha sirlaridan voqif Mir Tabib va Mavlono Abdulhakimlarning ijodiy qirralari kashf etiladi.

“Muzakkiri ahhob”da XV asrning qimmatli tazkiralardan hisoblangan “Majolisun-nafois” da keltirilgan shoirlar nomlari ham uchraydi. Bu esa bizga ijod ahli haqida ikki tazkirani chog’ishtirib turli va qimmatli ma’lumotlarni batafsilroq olishga imkon beradi. Mavlono Jomiy, Kavkabiy, Muammoiy, Purniy, Abdulvahob singarilar shular jumlasidandir. Hazrat Alisher Navoiy o’z tazkirasining 3-majlisida Mavlono Jomiyi ulug’lab shunday deydi:

“Ul jumladin quyosheki, roi olam oroyi bila bu zamon mubohiy va ahli zamong’a sharafi nomutanano hiy muyassardur va daryoeki, tab’i gavharzoyi bila bu

davron jaybi gavhardin to‘la va davron ahli qo‘yni va etagi javohirdin mamlu bo‘ladur. Hazrat Mahdumiy Shayxul-islomiy Mavloni Nuriddin Abdurahmon Jomiy (madda zillahu1)dururkim, to jahon bo‘lg‘ay alarning yorug‘ xotirlarining natoyiji, jahon ahlidin kam bo‘lmasun va tosipehr evrulgay, alarning ochiq ko‘ngullari favoyidi davron xaloyiqidin o‘ksulmasun. Chun bu muxtasarda mazkur bo‘lg‘on jamoatning ra’s va raisi ul zoti nafis va bu risolada mastur bo‘lg‘on guruhning muqtadosi va peshvosi ul gavhari yaktodur, muborak ismlari bu avroqda sabt bo‘lurdin guzir va yozilmasa dilpazir ermas erdi, jur‘at bo‘ldi. Chun alar latoyifi nazmi andin ko‘proqdurkim, hojat bo‘lg‘aykim, ba’zi bitilgay, yo elga ma’lum bo‘lsun deb birori sabt etilgaykim, kutublarining otin bitilsa, bu avroqtin oshar va musannafotlari durlari zinkrin qililsa, gardun bahri andin toshar, lojaram chun bu ma’ni bililur va duo bila xatm qililur.

Ruboiy:

Yo rab, bu maoniy durrining ummoni,

Bu donishu fazl gavharining koni

Kim, aylading oni olam ahli joni,

Olam eliga bu jonni tut arzoniy.”

Chindan ham, Jomiy adabiyot olamining quyoshi edi, Navoiy esa bu quyosh nuridan simirib ungan giyoh misol butun turk elining boqiy , so’nmas quyoshiga aylandi. Adabiyotshunos Porso Shamsiyev aytganidek, *«Chin insoniy xislatlardan sabot, matonat, g‘ayrat, tolmas mehnatkashlik bu ikki do‘stning mushtarak xususiyatlari bo‘lib qoldi. Bu mushtarak xususiyat bulardagi buyuk ijodiy kuch va mahoratning deyarli bir mezonda borganligida ko‘rinadi. Jomiy biror asar yozsa, birinchi galda Navoiyga taqdim etar, kerak miqdorda isloh etishni, kamchilik va nuqsonlarni ko‘rsatib berishni talab etar edi. Navoiy Jomiyini o‘ziga madadkor, qiynalganida mushkullarini hal qiluvchi va ishlarga rag‘batlantiruvchi ulug‘ homiy va murabbiy deb bilar edi»*.

Nisoriy “Muzakkiri ahbob”ning I bob IV faslida bu dunyodan yosh ketgan Jomiyning inisi Muhammad Jomiy haqida gapirar ekan, shoirning inisiga atab yozgan marsiyasini keltiradi va Jomiyni Hazrat Mahdumiy taxallusi bilan ko’rsatadi:

“... Hazrat Mahdumiy, hujasta farjomiy uning marsiyasida demishlar.

Marsiya:

Man budam az jahonu giromi barodare,
Dar silki nazm durri garonmoyayi guhare.
Zi onson barodare ki dar atvori ilmu fazl,
Chun u nazoda modar ayyomi digare.
Dar bo’stoni fazl saroyanda bulbule,
Dar osmoni ilm daraxshanda axtare.
Xurshidi avji fazl Muhammad ki birodaram,
Peshi qadam zi nur qaddam dosht rahbare.
Yak shama az shamoili u gar bayon kunam ,
Chami oyad az makorimi axloq daftare.

(Mazmuni:

Men edim bu jahonda va yana aziz inim,
Nazm silkida qimmatbaho bir gavhar edi.
Shunday ini ediki, ilm-fazl bobida yetuk,
Unga o’xshgani boshqa bir davrda onadan tug’ilmagan.
Fazl bo’stonining bir sayroqi bulbuli edi,
Ilm osmoninong charaqlagan yulduzi edi.
Fazl cho’qqisining quyoshi, Muhammad iniginam,
Uning oldini yoritardi shoh nuridan bir rahbar.
Uning shamoilidan agar birinigina bayon etsam ham,
Yaxshi xulqlardan yig’ilajak bir kitob.)”

“Majolisun nafois”da Jomiyning shoirlik iste’dodi, adabiyotdagi mahorati zo’r ishtiyoq bilan ko’rsatilgan bo’lsa, “Muzakkiri ahbob”da uning insoniylik fazilati, aka-ukalik mehr-muhabbat munosabatlari tasvirlangan. Garchi, asarda Jomiyning ta’rifi alohida keltirib o’tilmasa-da, Muhammad Jomiy ta’rifini o’qish jarayonida Abdurahmon Jomiy haqida ham ma’lumotga ega bo’lamiz.

Navoiy “Majolisun nafois” ning 2-majlisida, Nisoriy “Muzakkiri ahbob”ning II bob I faslida Xoja Munavvar Mehna haqida shunday deydilar:

“**Xoja Munavvar Mehna**- Hazrat Shayx Abusaid Abulxayr (quddisa sirruhu) ning nabiralaridindur. Yillar mazor boshida shayx erdi va zohir ulumin takmil qilib erdi va va’z majolisi bag’oyat garm va pursho’r voqe’ erdi. Va Xoja samo’ni dag’i muassir qilur erdi. Salotin Xojani ta’zimqilurlar erdi. Bu matla’ aningdurkim:

Az mahi ro’i tu oinai jon soxta and,

Vandar oina jonro nigaron soxta and.

Xojaning mazori buzurgvor jaddi gunbazidadur.” [III.40, 22]

“Yaxshi siyratlik hazrat Sulton Abusaid Abulxayrxonning avlodidan. Nuroniy, yorug’ chehralik kishi edi. Salim ta’bi va o’tkir zehni bor edi. Bir necha muddat muborak Mehna shahrida shayxulislomlikning dovrugli mansabida umrguzaronlik qildi. She’rga ham iltifot qilardi. Bu qit’a unga mansubdir. Qit’a:

Manam dargah Bandai bu Saidiy,

Che yoroyi onam ki xonand farzand.

Sagi kuyi uyam bubin jonibi man,

Ki binand sagro bar vay xudovand.

(Mazmuni:

Bu Saidiy dargohbandalaridanman,

Farzand deb atovchilari jumlasidanman.

Uning ko’chasi itidanman, biz tarafga ham boqqil,

Ki itini xo'jasi hurmati maqomida ko'radilar.)" (*"Muzakkiri ahbob"* dan)

Nisoriy shoirlarning so'z qo'llash mahoratiga alohida e'tibor qaratadi. She'riyatda yetakchi omil deb shakl yetukligini biladi, tazkirada "mushkila" uslubidagi namunalarni ko'proq keltirib, bunday she'r ijodkorlarini maqtaydi. Ammo, u shaklni mazmundan ayriqcha qoldirmaydi va bu haqida quyidagicha yozadi:

Ba lafzi xub ma'ni darj kun, v-arna che hosil z-on,

Ki Yusufro bar kashiy az chox, andozi ba zindonash.

(Yaxshi so'z bilan ma'nolarni yoz, bo'lmasa undan ne foyda, bu xuddi Yusufni quduqdan chiqarib, zindonga tashlaganday gap.)

Muallif masnu she'rlar, hajviy she'rlar yozgan ijodkorlarni alohida ta'kidlab ularning ijodiga haqqoniy bahoni bera olgan. Xususan, Mavlono Haydar Kuluch haqida gapirarkan, uning kuchli shoir bo'lganini, xat-savodi bo'lmasa ham xush va dilkash g'azallari borligini ta'kidlaydi. Bir kuni Alisher Navoiy majlisiga g'azal bitib olib borgan paytida, she'rdagi ma'noni tushuntirishga ojiz qolib, ushbu matlani aytgan ekan:

Chunon tuti sifat hayroni on oina ruyam,

Ki meguyam suxan, ammo, namedonam che meguyam.

(To'ti kabi ul oyna yuzlikka hayron boqaman,

So'zlaymanu nima deyatganimni o'zim bilmayman!)

Shoir hatto dil so'zini ham she'r orqali shunday tushuntiradiki, majlis ahli dil g'uborlari tarqalib ketadi.

Nisoriy ayniqsa, Vosifiy she'riyatiga o'zgacha ixlos qo'yadi. "Hokimlar hamisha unga mushtariy bo'lib, g'amxo'rligu rioyatini sira kam qilmasdilar. Aniqlik shoir ta'bi fazlu kamol majmuasini o'ziga qamragan hamda toza xayolot va yangi fikrlar yaratuvchisi bo'lib, nazm dengizida chuqur sho'ng'ir va ma'nolarning ajoyib duru gavharlarini terib chiqardi. Muammo ilmini yetuk egallagandi va ism

aytilmagan qiyin muammolarni ham osonlik bilan yechardi.” deya Mullo Vosifiyning “Bobo Do’st” ismiga aytgan muammosi keltiriladi. Muammo:

Hargah bikunam nomi xushash takror,
Guyam du-se bor, boz guyam du se bor.

(Mazmuni: Yaxshi nomini takror etganda, ikki uch bor va yana qayta ikki-uch bor aytaman.)

“Du uch bor aytilsa, “Bobo” hosil bo’ladi. Yana bir hisobda bundan olti hosil bo’ladi, oltidan sit chiqarilsa, maqsad hosil bo’ladi (oltining arabchasi “sit”, shu so’z haligi uchinchi ortiqcha “du”ga ulansa, “Do’do’ do’st ” so’zlari chiqadi.” Do’do’ ” arabcha bo’lib “bobo”ni bildiradi. -I.B)

Shuningdek, Nisoriy Mavlono Shahobiddin Muammoyini ham qiyin muammolarni oson yechuvchi, ta’bi muammo fanida benazir, to’g’rilikdan nishon bo’luvchi fikri she’r va insho ilmida dilpazir shoir deb biladi. Va uning chiroyli qasida va she’rlari, ajoyib muammolari borligini aytib, boburiylar sulolasining yaqini ekanligini ham ta’kidlaydi. Bu kishi haqida “Majolisun nafois”da ham quyidagi fikrlar mavjud:

“*M a v l o n o M u h a m m a d M u a m m o i y* — latif va sunniy mazhab kishi erdi. Ko’p akobir xizmatiga yetib erdi, manzuri nazarlari bo’lub erdi. Bobur Mirzo zamonida muazzam sadr bo’ldi va andin so’ngra ham salotin majlisida maqbul va maxsus erdi. Muknati chog’ida Sherozda hazrat Xoja Hofiz qabri boshida gunbaz yasadi va Bobur Mirzoni anda tilab ziyofatga qildi. Sherozning sho’x tab’laridan biri Mirzoning ko’zi tushar yerda devorda bu baytni bitib erdikim:

Agarchi jumlai avqofi shahr g’orat kard,
Xudosh xayr dihod onki, in imorat kard.

Mirzo o’qudi va bu bobda hazllar bo’ldi. Faqir bu naqlni o’zidan eshitibmen. Faqir bila ulfati bor erdi va ko’p musharraf qilur erdi. Oxir hayotida Kichik Mirzo bila haj davlatig’a ham Musharraf bo’ldi va anda olamg’a vido’ qildi.” [III.40.32 b]

Muammoyi o'z she'rlarida ko'p so'z o'yinlari qilgan.Hindistonda Polam degan viloyat bo'larkan, unda yaxshi dartaxtlar ko'p ekan, podshoh o'sha yerni Mavlono Muammoyiga suyurg'ol qilib beribdi.Ittifoqo janob Mavlono Muhammad Falg'ariy imorat qurayotib, imorat uchun Mavlonodan hadeb yog'och so'rab olaveribdi.Mulloning oxiri joniga tegibdi va bu ruboiyni aytib yuboribdi.Ruboiy:

Ey olimi falg'ariy chi nolam az tu,

Allomayi, olimi va olamaz tu.

To chand zi man tu chubi Polam talabi,

Polam az tuv u chubi polam az tu

(Mazmuni:Ey Falg'ariydan chiqqan olim, sendan nega noliy,Allomasan, olimsan va olam senikidir.)

Shoir bu yerda so'z o'yini qilgan,ya'ni "chubi po olam" da so'z o'yini bor.Mavlononing qabri Hindistondadir.

Nisoriy so'zida ma'no durlari bor, she'rlari shirin shoirlar safiga Mavlono Kasiriyni ham kiritib, uning ma'naviy olamiga nazar tashlaydi.Insoniylikning eng yaxshi fazilatu xislatlaridan biri bo'lmish insofilik fazilati uning ko'rki ekanligini, adolatli bo'lishlik doimiy shiori ekanligini ta'kidlaydi.Muallif Kasiriyni arraga o'xshatadi, chunki, arra adlu-insof, o'rtamiyonalik bilan ish tutadi.Ya'ni,ma'nolar xazinasini arra yanglig' ham o'ziga tortadi, ham boshqalarga tomon sochadi.

Bayt:

Chand dardi sar zi dasti hajru tanhoyi kasham,

Poi dil dar domain sabru shakiboi kasham.

Ey, sabo, az xoki poi u ban man garde rason,

To ba chashmi xud ba jon binoyi kasham.

(Mazmuni:Qachongacha ayrili va yolg'izlik dastidan bosh og'rig'i chekay.yurak oyog'ini sabru toqat etagi ichiga olay.Ey, sabo,uning oyog'i ostidagi tuprog'dan menga bir chang keltir, to ko'zimga davo-surma o'rnida suray.)

Mavlono keksalik davrida, 90 yoshida vafot etadi.

Nisoriy Mavlono Foniylar haqida gapirar ekan she'r fanlarida zukko ta'bi borligini aytadi. Muammo aytishda va uni yechishda benazirligini aytib, ushbu mustazod ruboiyni keltiradi:

Dey dar dilam on badxo' mehrash afzud
ori az jon,
So'yi dilam on badxo' ruxsora gushud
beshakku gumon.
G'ayri dilam on diljo' bo kas nanamud
on ruh pinhon
Foniylar oxir az tu dilro biramud
Bingar ba chi son.

(Mazmuni:

Kecha ul badxo' mehrin oshirdi olib jonni,
Ul yaxshi qiliqli yuzin ko'rsatdi yo'qotib gumonni.
Mendan o'zgaga yashirmagandi ul sanam oy yuzin,
Qara Foniylar ne yo'sin oldi endi qalbu iymonni)

Agar oxirgi mustazodni birinchi misra va birinchi mustazodni ikkinchi misra bilan ikkinchi mustazodni

Uchinchi misra bilan , uchinchi mustazodni to'rtinchi misra bilan birlashtirsa yana mustazod ruboiy hosil bo'ladi, so'z va ma'noda hech o'zgarish , nuqson bo'lmaydi va u quyidagicha chiqadi.

Ruboiy:

Bingar ba chi son dey dar dilam on badxo'
mehrash afzud,
Ori az jon so'yi dilam on badxo'
ruxsora gushud

Beshakku gumon g'ayri dilam on diljo'

bo kas nanamud

On ruh pinhon, Foni oxir az tu

dilro biramud.

Ushbu misralardagi shakl almashish jarayoni, ajoyib va ma'niga boy mustazodning yaratilishi Foni iste'dodining yaqqol ko'rinishidir. Afsuski, shoirning hayoti nochor kechgan, bu haqida Nisoriy bir rivoyat ham keltirib o'tadi va olimu shoirning omadi mol-dunyo topishda doimo teskari yuradi deb hajv qiladi.

Nisoriyning o'zi ham adabiyotga juda ixlosmand kishi bo'lib, turli janrlarda she'rlar yozgan va hatto har bir ijodkor ijodining nozik tomonlarini qidirib, ularga havas ortidan ergashgan. Biz buni tazkira III bobining I faslida Xoji Abdulaziz Qozi haqida gapirganida ko'rishimiz mumkin. U Xoji Abdulaziz Qozini aruz bahrlari qoidalarini egallashda juda bilimdon edi deya ta'riflab adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan ***musoviyattarafayn*** (ikki tomonlama bir xil yozilgan she'r) yo'sinidagi ajoyib she'ri borligini aytadi. She'rni ikki xil, odatdagi va yuqoridan pastga o'qisangiz ham bir xil shakl va bir xil ma'no hosil bo'laveradi. Ruboiy:

Binam chu	davron	xatti	navrasta
zi	kashadamzi	sad alam	payvasta
Davron	sad alam	ast barman	dar ham
Xatti	payvasta	man	basta
Navrasta		dar ham	

Nisoriy bu ruboiyni masnu qasidadan chiqargan va quyidagi shakldagi ruboiyni yaratgan:

Xubast zi	xuron	qaddi	guldasta
-----------	-------	-------	----------

Xuron	bimonad	chilvagar	payvasta
Qaddi	chilvagar	ast bar	darham
Guldasta	payvasta	manu man	basta
		dar ham	

Bu misollar har ikkala shoirning ham iste'dod ko'lamini ko'rsatib beradi.

Nisoriy har bir shoir iste'dodiga alohida yondashadi, ularning kasblarini, mahoratlarini misollar orqali yoritishga harakat qiladi. Jumladan, “Muzakkiri ahbob” ning II bob II faslida Mirak Husayn Buxoriy haqida so'z yuritarkan, uni Buxoroning taniqli kishilaridan deya ta'riflaydi, navisandalikdan (hisob-kitob, kirim masalalarini yozib boruvchi) xabari borligini va Tarix aytishda alohida mahorati borligini ta'kidlaydi:

Forig' az zuhdu vara mullo Hiloliyro bubin,
Onki, uro bud doim nomai isyon ba musht.
Kushta shud dar dasti Sayfullo dar shahri Xiriy,
Soli tarixash az on ru gashta “Sayfullo kusht”.

(Mazmuni:

Zuhdu taasubdan yiroq mullo Hiloliyni ko'rki,
Isyon nomasi doimo qo'lida edi.
Hirot shahrida Sayfullo qo'lida o'ldirildi,
Shu sababli yili ta'rixi “Sayfullo o'ldirildi” bo'ldi).(931) (1529)

2.02.Tazkirada Naqshbandiya tariqatiga munosabat

“Muzakkiri ahbob”da naqshbandiya tariqatiga ayrica ixlos qo’ygan kimsalar nomi qayd etilib, ularning xayrli ishlari, axloq va odoblari, ruhlaridagi poklik belgilari tasvirlanadi. Nisoriy qomusiy olim sifatida ilm va din ishlariga xayrixoh har qaysi toifa vakillarini o’zgacha samimiyat bilan tilga oladi.

Tasavvufiy tariqalar xilma-xil bo’lsa-da, ularning asosiy maqsadi bitta, ya’ni haqiqati mutlaqqa erishish, ilohiy zot haqida ma’rifatga ega bo’lib, uning roziligini hosil qilish va abadiyat zotiga yaqinlashishdir. Iroqlik tasavvufshunos olim shayx Amin Alovuddin Naqshbandiy ta’kidlashicha, tasavvuf tariqatlari bir xil bo’lmasa ham, barchasi bir manba — bir asosdan sarchina oladi. Ular bir-biridan har qancha farqli bo’lmasin, hammasining asosiy manbai bitta. Ali Safiy ta’kidlashicha, Abdulxoliq G’ijduvoni, xojalar tariqatining boshlovchisi edi. Ushbu tariqat avvallari unga nisbat berilib xojalar tariqati deb atalardi. Naqshbandiya tarafdorlari aytishlaricha, bu tariqat ilgari hazrat Abu Bakrga mansubligi uchun “as-Siddiqiya” deb atalardi, so’ngra Boyazid Bastomiya nisbat berilib “Tayfuriya” deb atalgan, uning ismi Tayfur bo’lgan. Ushbu ta’limot XV asrga kelib Bahovuddin Naqshband nomi bilan ulanib ketib “Naqshbandiya” deb atalgan.

Xoja Bahovuddin Naqshband o’zining ruhiy safarlarini bayon etishda aytib o’tganidek, ruhiy va ma’naviy tarbiyani Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyan olgan ekan. Mashhur tasavvufshunos olim Usmon Turar qayd etishicha, Bahovuddin Naqshbandning haqiqiy shayxi, uni “uvaysiylik” yo’li orqali tarbiyalab, kamolga yetkazgan Abdulxoliq G’ijduvoni bo’ladi. Bo’lmasa, Bahovuddin bilan G’ijduvoni orasida Shayx Samosiy, Ali Romitoni, Mahmud Anjir Fag’naviy va

Orif Revgariy turadi. G'ijduvoniylar va Naqshband yashagan davrlar orasida 200 yildan ko'proq fosila mavjud. bu tariqat Naqshbanddan keyin Xoja Ubaydullo Ahrorgacha naqshbandiya, Xoja Ahrordan Imom Rabboniygacha naqshbandiyai-ahroriya, Imom Rabboniydan Shamsiddin Mazhargacha naqshbandiyai-mujaddidiya, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolid Bag'dodiygacha naqshbandiyai-mazhariya, Mavlono Xolid Bag'dodiydan keyin xolidiya nomlari bilan atalib kelgan. Usmon Turar ifodasicha, naqshbandiya quyidagi to'rtta asosiy qoidaga asoslangan:

shariat yo'li bilan zohirni poklash;

tariqat orqali botinni poklash;

haqiqat yo'lidan ilohiy qurb (yaqinlik)ga erishish;

ma'rifat orqali Ollohga erishish.

Shu bois, bu tariqat vakillari o'zlarining hayot yo'llari va ijodlari mag'zida mana shu to'rt asosiy qoidani singdirganlar. Biz buni tazkirada nomlari qayd etilgan ba'zi bir ijodkorlarimiz hayotida ham ko'ramiz. "Muzkkiri ahhob" da nafaqat naqshbandiylik, balki, kubroviya, mavlaviya, jahriya tariqatiga kirgan bir necha ijodkorlarni kuzatishimiz mumkin. Ammo, bu qismda asosan, naqshbandiylik tariqatidagi kishilar hayoti va ijodiga nazar tashlashni, qolaversa, Nisoriyning bu tariqatga munosabatini yoritishga qaror qildik.

Nisoriy tazkiraning maqola qismida Bobur Mirzo haqida gapirar ekan uning Naqshbanlik tariqatiga ixlosi mavjudligini, Xoja Ahror Valiy shaxsiga zo'r hurmati borligini ta'kidlaydi va bu haqda shunday deydi: *"...Podshohning Naqshbandiya oliy xonadoniga irodat nisbati bor edi. Yuqori shon-shavkatli bobosi va saltanat nishonli otasining hazrat xoja Ahrorga irodati bo'lgan Bobur podshoh ham bu ulug'lar xonadoniga nisbatan izzat-ikromni soatma-soat oshirar va biron*

daqiqa bu ishni kanda qilib ,g'aflatda qolmas edi.Barcha darvishlarga lutf eshigini ochib , niyozmandlik yumushini bajo keltirardi..."

Adolatli xoqon Zahiriddin Muhammad Bobur unga ko'ngil qo'ygan muxlislardan biri sifatida Xojaning "Volidiya" risolasini o'zbek tiliga nazmda tarjima qiladi. U "Boburnoma"da yozishicha, qattiq kasallikka uchraganda mashhur "Qasidai Burda" muallifi muhaddis va shoir Sharafuddin Abu Abdulloh Bo'siriyni (1213—1295) eslaydi. Bo'siriy payg'ambarga atab yozgan mashhur qasidasini tugatgandan keyin ixlos va aqida kuchi bilan falaj kasalligidan shifo topgan ekan. Bobur shunday bir niyat bilan Xoja Ahrorning "Volidiya" risolasini turkiy nazmga kirita boshlaydi va tarjima oxiriga etmay turib kasallikdan shifo topadi.

Bobur "Volidiya" risolasining boshlang'ich qismida Xoja Ahrorni shunday tanitadi:

*Hazrati Xoja Ubaydullohdin,
Eshit ul sirri xudoogohdin,
Xojalar xojasi ul Xoja Ubayd,
Xodimu chokari Shibliyu Junayd.
Holatu martabasi zohirdur,
Vasfu ta'rifida til qosirdur.*

Yuridik fanlar doktori Abdulhakim Jo'zjoniy bu haqda shunday deydi:

"Bobur Xoja Ahrorning "Volidiya" risolasini tarjima qilgandan keyin undan bir nusxani naqshbandiya tariqatining yirik vakili va mashhur targ'ibotchisi, oliymaqom so'fiy Mahdumi A'zam laqabi bilan shuhrat qozongan Sayyid Ahmad ibn Jaloluddinga o'zining bir qancha ruboiylari bilan yuboradi. Maxdumi A'zam risola tarjimasiga katta baho beradi, undan va Boburning

she'rlaridan ilhomlanib, javoban "Risolai Boburiya" nomli bir asar yozib, kamoli samimiyat bilan Bobur mirzoga taqdim etadi. Ushbu risolada naqshbandiya tariqatiga xos bo'lgan bir qancha usullar va tasavvufiy tushunchalar, zikri jaliliy va zikri xafiy kabi istilohlar izohlab o'tilgan. Uni ushbu tariqatga xos bo'lgan ayrim tushunchalarning qisqacha sharhi desa bo'ladi. Maxdumi A'zam risola muqaddimasida bunday deb yozadi: "Ushbu nusxai sharif yozilishiga sabab shu ediki, Haq dargohiga qabul bo'lgan darvishlarga nisbatan ixlos va irodat ko'rgazib, ular tomonidan sevilgan podshoh hazratlarikim, jon ichinda o'rin tutganliklari uchun ularning ismlarini tilga olish odobdan emas; yirik din arbobi va ilm ul-yaqin yo'lchisi erkanligini tushungan Xoja Ubaydullo Ahror ularga Xudo nuri orqali nazar qilgan ekan, buning natijasi sifatida u kishida (ya'ni Boburda) talab dardi topilib, oromsizlik va qarorsizlikka sabab bo'lgan ekan. Mazkur dardni bartaraf etish ushbu toifadan boshqaga muyassar emas. Shuning uchun Hazratning "Volidiya" risolasini nazmda tarjima qilib, o'z ruboiylari bilan bizga yuborgan ekanlar. Shunga ko'ra, kamina bir nusxa yozishga urindim. Xudo xohlasa, umid borkim, muborak xotirlariga taskin berib, ushbu saodat sarmoyasi bo'lmish talab dardining ko'payishiga sabab bo'lg'ay".

Shunday qilib, "Boburiya" risolasi Xoja Ahrorning "Volidiya" risolasiga javoban yozilgan asar bo'lib, yirik shoir va buyuk saltanat sohibi Bobur bilan naqshbandiya tariqatining ulug' vakili oliymaqom so'fiy Maxdumi A'zam o'rtasidagi oltin ko'prik sifatida yuzaga keladi.

Xoja Ahrorning anfosi qudsiyasi barakoti bilan Bobur irfoniy tuyg'ular ta'siri ostida manmanlikni oyoqosti qiladi, iqtidorli podshoh maqomidan so'fiyona kamtarlik bilan faqirlik martabasiga qadam qo'yadi. Bu ruhiy o'zgarish mo'jizaviy bir tarzda yuz berdi. U "Volidiya" risolasi tarjimasida asnosida og'ir kasallikdan forig' bo'ladi. Bunday o'zgarishdan ilhom olgan Maxdumi A'zam ushbu ixlos va irodatni

qadrlash maqsadida “Risolai Boburiya” kabi nafis bir asarni yozishni lozim topdi...”

Nisoriy Humoyun Mirzo haqida gapirar ekan oʻz otasiga oʻxshab oliy mansabligiga qaramay, niyoz boshini darvishlar tomon oʻgiranini, hazrat xojai buzurgvor Bahouddin Naqshbandiyning ulugʻ xonadoniga mehr hamda xoja Ahrorning majid avlodiga muhabbati oʻzgachaligini taʼkidlaydi.

Bu misollar, boburiylar tomonidan oʻz davrining atoqli tariqat vakili , siyosat bilimdoni, tasavvuf va irfon amaldori boʻlmish Xoja Ahrorga nisbatan ishonch va ixlos namunalari edi.

Nisoriy XVI asr adabiyotida naqshbandiylik gʻoyalarini keng tarqalganini tazkira orqali bir necha marotaba koʻrsatadi. Jumladan, xoja Mirshoh Joʻyboriyning oʻgʻli boʻlmish Mavlono Yaqiniy mashhur “Salosili arba” (Toʻrt silsila) ni nazm libosiga oʻrab ushbu qitʼani imlo qilib oʻtadi va xudo yoʻlining eng yaxshi tariqatlari deb naqshbandiylik, jahriya suluki, zayniy maslaki va kubraviya tariqatini koʻrsatadi:

Baʼdaz on chor mazhabi bar haq,

Ki buvat dar shariat gʻurro .

Hast andar jahon chor tariq,

Behtarini tariqi rohi xudo.

Naqshbandiyu Jahriyavu , Zayniy,

Hast chorum tariqai Kubro,

(Mazmuni:

Xudoning shariatda aʼlo ul toʻrt mazhabidan soʻng .

Bor yana to'rt yo'li, ular ham

Xudo yo'lining eng yaxshi tariqatlaridir.)

Umuman olganda , Nisoriyning ham ushbu tariqatga munosabati juda ijobiy bo'lgan va bu “Muzakkiri ahbob” da ifodalanadi

Xulosa

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob ” tazkirasi anchagacha ko'pchilik olimlar tomonidan e'tibordan chetda qolib keldi. Ammo, ko'plab izlanishlardan so'ng 1993-yilda asar Ismoil Bekjon tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va ko'pgina nazardan chetdagi masalalar yechim topdi, qiziqarli va muhim ma'lumotlar yoritildi. “Muzakkiri ahbob” tazkirasi bugungacha akademik Botirxon Valixo'jayev (“O'zbek adabiyoti tarixi ” (X-XIX asrlar) qo'llanmasida), Iqboloy Adizova (“O'zbek adabiyoti tarixi” qo'llanmasida (XVI-XIX asrning 2- yarmi) o'ni-o'ni bilan “Muzakkiri ahbob ma'lumotlaridan foydalanilgan.) singarilar tomonidan qisman o'rganilgan bo'lsa-da, asosiy izlanishlar asar tarjimoni Ismoil Bekjon tomonidan amalga oshirildi. Uning “Bobur va Boburiylarga oid 3 maqola”, “Hind safari yoxud Imqulixon topshirig'i va Boburiylar va Go'r Mir maqbarasi”, “Xonzodabegim va Xurramshoh qismati”, “Qo'l yetmas yulduz”, “Shahid bo'lgan baxtli xoqon Abulfath Muhammad Shayboniyxon ibn Shohbudog' Sulton bin Abulxayrxonning muqaddas yodi” singari maqolalari buning yaqqol misolidir.

Asar chindan ham, mumtoz adabiyotimiz tarixini o'rganishda qimmatli va muhim manbadir. Uning maqola qismi asosan, Shayboniylar va Temuriylardan , otasi va o'zi hurmat qilgan boburiylardan yetishib chiqqan shoirlarga bag'ishlangan bo'lsa , 4 bob ichida O'rat Osiyolik, Turkistonlik, Xurosonlik, Ozorbayjonlik, Hindistonlik shoirlar haqida hikoya qilinadi. Ayni shu 4 bobda

mazrkaz qilib belgilangan Buxoro shahri adabiy hayotning o'chog'i sifatida tasvirlanadi. Temuriylardan so'ng ularning o'rniga kelgan Shayboniylar madaniyatni butunlay yo'qotib tashlamadilar .Balki, unga homiylik qildilar. Ilm-fan , din, ayniqsa, adabiyot gurkirab yashnadi. Xoja Abdulaziz, Shirvoniy, Foni, Shavqiy, Volahiy, Majlisiy, Mavlono Ruhiiy Tabib, Mir Shodiy, Kasiriy, Kamolliddin Ziyoiy, Sidqiy, Maloliy, Mirzo Hindu, Qoiliy, Kuyiy, Miram siyoh, Shamsiddin Qahstoniy, Mirak Said G'iyos, Xoja Munavvar Mehna, Mirshayx Purniy, Abdulvose', Rohiy, Ziynatiy, Komiy, Shayx Xalillulo, Mansuriy Tabriziy, Shafe'iy, Behudiy, Ravnaqiy , Mir ali Kotib , Sulton ali Ubahiy , Devona, Mavlono Kepak , Mavlono Abdusamad , Mavlono Do'st Muhammad , Hofiz Ibrohim , Nizom Qozi , Surudiy , Safoiy , qahstoniy , Mirshayx Purniy , Shayx Obid , Hofizi Kalon , Husayn Turkistoniy , Shamsiddinlar shu madaniyatning yorqin vakillaridir.

Muallif asar davomida ijodkorlarning ijodiy mahoratlarigagina e'tibor qaratib qolmay , ularning shaxsiy fe'l- atvor xususiyatlariga, odamiylik qirralariga , qalb dunyosiga ham nazar tashlaydi. Ba'zilarining fel-atvorida ezmalik , beboklik va sho'xlik ta'bi bo'lsa ham g'oyat go'zal she'rlar ijod qilganini tan oladi va misollar keltiradi. Asarda Buxoro zamini bilan bog'liq qariyb 200 nafar shoir nomi tilga olinadi.

Tazkira bizga nafaqat Buxoro adabiy muhiti haqida , balki, o'sha davr madaniyati, siyosiy va ijtimoiy hayot lavhalari haqida ham hikoya qiladi. Buxoro amirligidagi hayot, tarixiy obidalar , hayvonot va nabotot olami to'g'risida ma'lumot beruvchi ushbu asar tarixchi, geograf va adabiyotshunoslar e'tiborini o'ziga birdek jalb qiladi.

“Muzakkiri ahhob” mumtoz adabiyotda noyob bir manbadir. Uni yanada chuqurroq o'rganib tahlil qilish ayniqsa, biz Buxorolik yoshlar uchun ham farz , ham qarz. Zero, “O'z tarixini chuqur bilgan har qanday avlod har doim kimning

farzandi ekanligini unutmaydi, g'urur bilan o'z ajdodlaridan faxrlanib boshini baland tutib yuradi.